

N.M. Orifxo'jayev

араб

**ARAB TILIDAGI
SINTAKTIK TARKIBOTLAR**

Toshkent - 2010

“Arab tilidagi sintaktik tarkibot” o’quv fani arab tilidagi sintaksisga oid tayanch grammatik qoidalarni shuningdek, bu qoidalarni asosini tashkil etuvchi sintaktik tarkibotlarni magistr'larga har tomonlama chuqur, ilmiy, nazariy asosda tushuntirishni maqsad qilib qo'yadi.

Ma'lumki, arab tilida juda ham ko'p grammatik jihatdan o'zaro bog'lanib, bir sintaktik birikmani tashkil etadigan ikki va undan ortiq so'z yoki so'zlar birikmasi yordamida ifodalanadigan sintaktik birikmalar juda ko'p uchraydi. Bunday birikmalar mustaqil so'z birliklari sifatida yoki ergashgan qo'shma gaplar tarkibida kelib, unda ma'lum grammatik funksiyani bajarib, jumla tarjimasini ham grammatik, ham stilistik jihatdan aniq amalga oshirish imkonini beradi.

Ushbu o'quv qo'llanmada arab grammatikasida eng ko'p qo'llanadigan yuklama va so'zlar yordamida arab sintaksisida qo'llanadigan yuzdan ortiq sintaktik konstruksiyalarni talabalarga ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'rgatish nazarda tutilgan.

Mas'ul muharrir:

f.f.d., professor R.U.Xo'jayeva

Taqrizchilar:

f.f.n., dotsent T.Sh.Qodirov

p.f.n., dotsent K.Qodirov

Ushbu qo'llanma Toshkent davlat sharqshunoslik instituti O'quv-uslubiy kengashi tomonida nashrga tavsiya etilgan.
(Bayonnoma №4, 17.06.2010)

© Toshkent davlat sharqshunoslik instituti 2010 y.

KIRISH

Ma'lumki arab nahvi nihoyatda murakkab va o'ziga xos jihatlari bilab ajralib turadi. Arab nahvini yanada mukammal va har tomonlama o'rganish, arab tilini egallashda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Ilgarilari til o'rganayotganda grammatikani 2 - darajali vositachi omil deb qaralgan bo'lsa, hozirga kelib, bunday munosabat o'zgarib grammatikaning til o'rganishdagi ahamiyatiga bo'lgan munosabat va yondashuv o'zgacha tus oldi va uning maqomi o'zgardi. Zamonaviy nahvchilar va til sohasidagi uslubchilar grammatikani mukammal o'rganish va o'zlashtirish bevosita tilni mukammal egallashda yetakchi omil ekanligi va busiz tilni mukammal bilish mumkin emasligi e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, arab nahvining o'ziga xosligi va murakkabligini hisobga oladigan bo'lsak, uni yanada chuqurroq bilish uchun arab tilida mavjud yuklama, ko'makchi va ayrim so'zlar yordamida yasaladigan grammatik qurilmalarining tuzulishini, ularning gap tarkibida qo'llanishi va tarjima hususiyatlarini bilish nixoyatda katta ahamiyat kasb etadi.

Maskur qo'llanmada arab tilida keng ravishda qo'llaniladigan - ا، اُنْ، اُنْ، لا، م، va boshqa yuklamalar yordamida yasaladigan sintaktik konstruksiyalar berilgan bo'lib, ularning jumla tarkibida qo'llanilishi va tarjima xususiyatlari bayon etilgan. Mazkur o'quv qo'llanma magistratura bosqichidagi talabalarga mo'ljallangan.

**Mavzu: № 1 ʼ yuklamasi bilan yasaladigan sintaktik
konstruksiyalar**

Darsning oʻquv maqsadi: ʼ yuklamasi bilan yasaladigan sintaktik konstruksiyalar haqida nazariy va amaliy koʻnikma malakalarni shakllantirish

Tushunchalar va tayanch iboralar:

Grammatik konstruksiya, sintaktik birikma. أليس، أمّا، أفمّا، ألاّ، istak, niyat, ragʻbatni va jalb etishni ifodalovchi konstruksiyalar.

Asosiy savollar:

1. Sintaktik tarkib deb nimaga aytiladi?
2. ʼ yuklamasining soʻroq gaplar tarkibida qoʻllanilishi.
3. أليس، أمّا، أفمّا konstruksiyalarining qoʻllanilishi.
4. أولم، أفلم konstruksiyalarining Qurʼoni karim oyatlarida qoʻllanilishi

Maʼlumki, arab tilida qoʻshma va ergash gaplar, baʼzida oddiy feʼliy jumlar ham sintaktik (birikmani tashkil etuvchi) konstruksiyalar yordamida ifoda etiladi. Agar toʻlaroq taʼriflaydigan boʻlsak, sintaktik konstruksiyalar deb – grammatik jihatdan oʻzaro bogʻlanib, bir sintaktik birikmani tashkil etadigan ikki va undan ortiq soʻz, umuman soʻzlar birikmasiga aytiladi.


Arab tilida ʼ soʻroq yuklamasi bilan hosil qilinadigan grammatik konstruksiyalar siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy maqolalardan koʻra badiiy, diniy, ilmiy matnlarda koʻproq uchraydi.

Quyidagi klaster usulida ifodalangan sxema ʼ soʻroq yuklamasi bilan hosil qilingan grammatik konstruksiyalarni toʻliq ifodalab beradi.

ف... murakkab bogʻlovchili gapning egasini ajratib koʻrsatadi va unga maʼno jihatdan bogʻlangan soʻzlarning kelishiklariga taʼsir qilmaydi. Bunda أمّا eganing oldiga, ... ف bogʻlovchisi esa kesimning

yoki egani takrorlab, unga son va jinsda moslashib kelgan kelishik olmoshining oldiga qoʻyiladi.

أما زينب فتلميذة – Zaynabga kelsak, u oʻquvchi qizdir.



Arab tilida soʻroq-ohang, soʻroq soʻzlar va maxsus yuklamalar orqali ifodalanadi. Soʻroq gaplardagi soʻzlar tartibi darak gapdagi soʻzlar tartibidan umuman farq qilmaydi. Faqatgina soʻroq soʻzlar va yuklamalar gap boshida ishtirok etadi.

Soʻroq gaplar ohang bilan aytiladi va gap oxirida biroz koʻtariladi.

Umuman olganda, soʻroq gaplar soʻzlovchiga nomaʼlum biror narsa yoki hodisa haqida maʼlumot olish maqsadida qoʻllaniladi.

Arab tilida soʻroq gapning quyidagi turlari mavjud:

1. Umumiy;
2. Maxsus;

3. Alternativ.

«Ha» yoki «yo‘q» so‘zlariga javob bo‘ladigan so‘roq gap umumiy so‘roq gapdir. Umumiy so‘roq gaplar أ va هل yuklamalari yordamida ifodalanadi.

وَإِذْ قَالَ رَبُّكَ لِلْمَلَائِكَةِ إِنِّي جَاعِلٌ فِي الْأَرْضِ خَلِيفَةً قَالُوا أَتَجْعَلُ فِيهَا مَن يُفْسِدُ فِيهَا
وَيَسْفِكُ الدِّمَاءَ وَنَحْنُ نُسَبِّحُ بِحَمْدِكَ وَنُقَدِّسُ لَكَ قَالَ إِنِّي أَعْلَمُ مَا لَا تَعْلَمُونَ

Eslang, (ey Muhammad) Rabbingiz farishtalariga: «Men Yerda xalifa (odam) yaratmoqchiman», -deganida, (ular) aytdilar: Unda (yerda) buzgʻunchilik qiladigan, (nohaq ravishda) qonlar toʻkadigan kimsani yaratmoqchimisiz?

Holbuki, biz Senga hamding bilan tasbehlar aytamiz va Seni muqaddas deb bilamiz. (Alloh) aytdi: «Men sizlar bilmagan narsani bilaman».

Alternativ soʻroq gaplarning bir qismi yuqorida aytib oʻtilgan yuklamalar orqali berilsa, ikkinchi qismi esa **أو** yoki **أم** yuklamalari bilan oʻz aksini topadi.

قُلْ أَتَحَاجُّونَنَا فِي اللَّهِ وَهُوَ رَبُّنَا وَرَبُّكُمْ وَلَنَا أَعْمَالُنَا وَلَكُمْ أَعْمَالُكُمْ وَنَحْنُ لَهُ مُخْلِصُونَ
 {139} أَمْ تَقُولُونَ إِنَّ إِبْرَاهِيمَ وَإِسْمَاعِيلَ وَإِسْحَاقَ وَيَعْقُوبَ وَالْأَسْبَاطَ كَانُوا هُودًا أَوْ نَصَارَى قُلْ
 أَنْتُمْ أَعْلَمُ أَمْ اللَّهُ وَمَنْ أَظْلَمُ مِمَّنْ كَتَمَ شَهَادَةً عِنْدَهُ مِنَ اللَّهِ وَمَا اللَّهُ بِغَافِلٍ عَمَّا تَعْمَلُونَ
 {140}

139. Aytig, (ey Muhammad): Bizning ham, sizning ham Rabbingiz bo‘lmish Alloh haqida biz bilan tortishasizmi?! Bizning a‘mollarimiz –bizga, sizning a‘mollaringiz –sizga. Biz faqat ungagina ixlos qiluvchilarmiz.

140. Yoki sizlar (Isroil avlodi): «Ibrohim, Ismoil, Ishoq, Ya'qub va uning avlodi (hammasi) yahudiy yoki nasroniy bo'lgan» deysizmi? Ayting (ey Muhammad0: «(Ularning dinlarini) sizlar biluvchiroqmi yoki Allohmi? Guvohlikni Allohdan yashirgan kimsadan kim ham zolimroqdir?! Alloh qilayotgan ishlaringizdan g'ofil emasdir.

holatida kelganida u inkor so'roqni
ifodalaydi.

أَلَمْ تَعْلَمْ أَنَّ اللَّهَ يَعْلَمُ مَا فِي السَّمَاءِ وَالْأَرْضِ إِنَّ ذَلِكَ فِي كِتَابٍ إِنَّ ذَلِكَ عَلَى اللَّهِ يَسِيرٌ {70}

70. (Ey, Muhammad) Siz Alloh, osmon va yerdagi bor narsani bilishini bilmadingizmi? Albatta bu Kitobda (Lavhul Mahfuzda yozib qo'yilgan)dir. Albatta bu Allohga osondir.

أَلَا يَعْلَمُ مَنْ خَلَقَ وَهُوَ اللَّطِيفُ الْخَبِيرُ {14}

14. (Axir) Yaratgan zot (O'zi yaratgan narsalarini) bilmaydimi?

أَلَيْسَ اللَّهُ بِأَحْكَمَ الْحَاكِمِينَ {8}

8. Axir, Alloh (o'sha Kunda) hukm qiluvchilarning (adolatli) hukm chiqaruvchiorg'i emasmi?

Shuningdek, أَلَمْ va أَمْ so'roq ohangi yana e'tiborni o'ziga jalb qilish va istak, niyat, rag'batni ifodalashda xizmat qiladi.

إِنَّ رَبَّكَ اللَّهُ الَّذِي خَلَقَ السَّمَاوَاتِ وَالْأَرْضَ فِي سِتَّةِ أَيَّامٍ ثُمَّ اسْتَوَى عَلَى الْعَرْشِ يُغْشِي
الَّيْلَ النَّهَارَ يَطْلُبُهُ حَثِيثًا وَالشَّمْسُ وَالْقَمَرُ وَالنُّجُومُ مُسَخَّرَاتٌ بِأَمْرِهِ أَلَا لَهُ الْخَلْقُ وَالْأَمْرُ تَبَارَكَ
اللَّهُ رَبُّ الْعَالَمِينَ {54}

54. Darhaqiqat, Rabbingiz osmonlari Yerni olti kunda yaratgan, soʻngra Arsh Uzra mustaviy boʻlgan, kunduzga tunni qoplatadigan – uni (yaʼni, tunu kunni) shitob quviydi – quyosh, oy, yulduzlarni oʻz amriga musaxxar (mute) qilib qoʻygan Allohdir. Ogoh boʻlingizki, yaratish va buyurish unga xosdir. Olamlarning rabbi – Alloh barakatlidir.

Ko‘pincha لَا so‘roq yuklamasidan keyin إِنَّ orttiriladi.

وَاتَّبِعُوا فِي هَذِهِ الدُّنْيَا لَعْنَةً وَيَوْمَ الْقِيَامَةِ إِلَّا إِنْ عَادُوا كَفَرُوا رَبَّهُمْ أَلَا بُعْدًا لِعَادِ قَوْمِ هُودٍ {60}

Ularga bu dunyoda ham, qiyomat kunida ham la'nat aytilur. Ogoh bo'lingizkim, albatta Od qabilasi Parvardigorlariga kofir bo'lgan edilar. Ogoh bo'lingizkim, Xudoning qavmi bo'lgan Od halokatga uchradi.

Umumso‘roq yuklamalari ma’nosida ba’zi hollarda **أريت، أتری، تری** kabi so‘zlar qo‘llaniladi.

Qur'onda esa bu so'zlar (fe'llar) so'roq yuklamalari orqali ifodalanadi.

أَلَمْ تَرَ إِلَى الَّذِينَ بَدَّلُوا نِعْمَةَ اللَّهِ كُفْرًا وَأَحَلُّوا قَوْمَهُمْ دَارَ الْبَوَارِ {28}

أَفْمَنْ، أَمِنْ، أَوَلَيْسَ، *tarzida* أولُنْ، أَلَمْ، أَفَلَمْ، *tarzida* أَوَلَا، أَفَلَا، أَلَا *Qur'onda* أَلَيْسَ *tarzida* qo'llaniladi.

الئم، أفضا، أما Yuqorida ko'rib o'tilgan konstruksiyalardan tashqari kabi grammatik konstruksiyalar mavjud. Bu konstruksiyalar zamonaviy arab OAV da juda kam qo'llaniladi. Ular asosan, tarixiy va diniy matnlarja o'z aksini topgan.

1. Grammatik konstruksiyalar nimani ifoda etadi?
2. أَلْ konstruksiyasidan keyin qaysi yuklama qoʻllanilishi mumkin?
3. أليس، أفلا، أَلْ va boshqa konstruksiyalar qanday matnlarda koʻproq qoʻllaniladi?
4. Inkor maʼnosidagi konstruksiyalarni bayon qilib bering.

Qur'oni karimning "Baqara" surasida 1 yuklamasi bilan yasalgan konstruksiyalarning qo'llanilishi va tarjima xususiyatlari.

1. E.P.Bobileva. *Arabskiy yazik a sintakticheskix konstruksiyax*. M.–2002g.
2. Grande B. *Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno-istoricheskom osvещenii*. –M., 1998.
3. Mamedov E.*Uchebnik arabskogo yazika*. –Baku, 1984.

1. V.E.Shagal, M.N.Merenin. Uchebnik arabskogo yazika. M.–1983
2. Sunnatulloh Bekpo‘lat. Arab nahvi. T.2007y.
3. V.G.Lebedev, Yu.I.Malyarov. Uchebnik po rechevoy praktika arabskogo yazika. Osnovnoy kurs. Chast-2. M.1984g.
4. E.N.Mishkurov, A.R.Raufova. Morfologicheskoy stroy sovremennogo arabskogo yazik. M-1972g.
5. النحو الواضح. مصطفى أمين، علي جارم. بغداد 1998م.

**Mavzu: №2 أن yuklamasi bilan qo'llanadigan sintaktik
konstruksiylar**


Dars o'quv maqsadi: أن yuklamasi va u bilan yasaladigan konstruksiylarning xususiyatlari bo'yicha malaka va ko'nikmalar hosil qilish.

Tushuncha va tayanch iboralar:

1. عَلَى أَنْ;
2. لِأَنْ
3. دُونَ أَنْ
4. قَبْلَ أَنْ
5. بَعْدَ أَنْ
6. xohish, istak, niyat, imkoniyat, zaruriyat, qaror qilish.

Asosiy savollar:

1. أن yuklamasining umumiy grammatik vazifasi.
2. أن yuklamasining sabab ergash gaplar tarkibida qo'llanishi.
(يَنْظَرُونَ إِلَى أَنْ شَارَفَاتِي بِلَانِ; أَنْ سَابَابِلِي; أَنْ سَابَابِلِي)
3. لِأَنْ konstruksiylarining qo'llanilishi.
4. أن yuklamasining ega ergash gap tarkibida qo'llanishi.
5. أن yuklamasining istisno ergash gaplarda qo'llanishi , (دُونَ أَنْ , مِنْ غَيْرِ أَنْ , لَا أَنْ)
6. أن yuklamasining payt ergash gapda qo'llanishi.
(مَا أَنْ... حَتَّى إِلَى أَنْ, مُنْذُ أَنْ, قَبْلَ أَنْ , بَعْدَ أَنْ)



Odatda أن yuklamasining eng ko'p va keng miqyosda qo'llanadigan vazifasi istak maylini ifodalashdir.

أن yuklamasi hamma vaqt xohish, istak, niyat, imkoniyat, zarurat, qaror qilish, rozilik, buyruq, man etish, ruzsat etish , qo'rquv, xavfsirash, xursandchilik, ajablanish ma'nolarini anglatuvchi fe'llardan keyin qo'yiladi.

يَجِبُ عَلَيَّ أَنْ تَجْتَهِدَ – Sen harakat qilishing kerak.

يَنْبَغِي لَكَ أَنْ تَذْهَبَ إِلَى مَحْمُودٍ فُورًا – Sen zudlik bilan Mahmudning oldiga borishing kerak

لَا اسْتَطِيعُ أَنْ أَتْرَكَ وَالِدَيَّ – Ota-onamni tark eta olmayman.

Tarjimada أن fe'l bilan birgalikda ish-harakat nomi-masdar ma'nosida keladi.

Shu sababli o'zbek tiliga tarjima qilinganida masdar bilan almashtirilishi mumkin. Arab tilidagi variantida ham masdar bilan almashtirish joizdir.

طَلَبْتُ خُضْرَةً = طَلَبْتُ أَنْ يَخْضُرَ

Uning ishtrok etishini so'radim.

Shuni takidlash kerakki, gumon va bilishlikni anglatuvchi fe'llardan keyin bu yuklama o'zbek tilida "ki", ...ligini", "deb" ma'noladi orqali tarjima qilinadi.

Masalan:

سَمِعْتُ أَنْ زَيْدًا رَجَعَ yoki سَمِعْتُ أَنْ رَجَعَ زَيْدٌ deyish ham mumkin.

Zayd qaytib kelganiligini eshitdim(yoki...qaytib keldi, deb eshitdim. Yoki, eshitdimki Zayd qaytib kelibdi.)

أَنْ yuklamasining birgina o'zi bir qancha ma'nolarni o'zida mujassamlashtigan. Biroq bu ma'nolarning asosiy mohiyati أَنْ bilan yasaladigan murakkab konstruksiyalarda namoyon bo'ladi.

Bu konstruksiyalarning qo'yilishi ergash gap qo'shma gapli jumalarda bog'lovchi vazifasini bajarib, turli murakkab ma'nolarni ifoda etishda xizmat qiladi.

بِفَضْلِ أَنْ , بِسَبَبِ أَنْ gap tarkibida , بَفَضْلٍ أَنْ va boshqa konstruksiyalar ham qo'llanishi mumkin. Bu konstruksiyalar ergash gapning boshiga qo'yiladi va o'ziga xos ravishda uni bosh gapda ajratib turadi.

Bunda fe'ldan oldin أَنْ va ot(ega) dan oldin qo'llaniladi.

صَارَ إِطْلَاقُ الْإِنْسَانِ إِلَى الْقَضَاءِ مُمَكِّنًا بِسَبَبِ أَنْ الْعُلُومُ التَّكْنِيكِيَّةُ تَطَوَّرَتْ سَرِيعًا

Texnika fanlari juda tez rivojlangani sababidan insonning fazoga chiqish imkoniyati paydo bo'ldi.

لَمْ يَخْضُرْ مَحْمُودٌ الدَّرَسَ بِسَبَبِ أَنْ يَمْرُضَ (أَنْ يَمْرُضَ)

Mahmud darsga kasal(bo'lib qolgani)ligi sababli kelmadi.

بِفَضْلِ أَنْ تَرِيضَ تَحَسَّنَتْ سِحَّتُهُ بِصُورَةٍ مَلْحُوظَةٍ

U sport bilan shug'ullanganligi tufayli, sog'ligi sezilarli darajada yaxshilandi.

Maqsad ergash gaplar tarkibida لِأَنَّ، لِأَنَّ، لِأَنَّ bo'lishlik va bo'lishsizlik (inkor) mazmunini ifodalovchi konstruksiyalar qo'llaniladi.

Bu konstruksiyalar(bog'lovchilar)ergash gap oldidan kelib uni bosh gapga bog'laydi.

Maqsad ergash gap bosh gapdan oldin ham , keyin ham kelishi mumkin,

لِأَنَّ تَفْهَمَ هَذَا الْمَوْضُوعَ يَجِبُ عَلَيَّ أَنْ أَقْرَأَ كَثِيرًا

Bu mavzuni tushunish uchun ko'p o'qish kerak.

Inkor ma'nosida أَنْ konstruksiyasi qo'llanib "maslik" uchun deb tarjima qilinadi.

يَجِبُ عَلَيَّ أَنْ أَتَجَيَّأَ فِي وَقْتٍ مُعَيَّنٍ أَلَّا تَتَأَخَّرَ عَنِ الْاجْتِمَاعِ

Majlisga kechga qolmasliging uchun belgilangan vaqtda kelishing kerak

أَنْ yuklamasi sabab ergashi gap tarkibida qo'llanishi mumkin.

تَدِمْتُ عَلَيَّ أَنْ لَمْ أَكُنْ رَأْيِيَنَّكَ

Men uni ko'rmaganimdan(uchun) afsusdaman.

Bu jumlada predlogi fe'li boshqaruvida kelayapti. Shuning uchun bu jumlada أَنْ yuklamasi predlogi bilan konstruksiyasini tashkil etib kelgan.

Arab tilida mustaqil konstruksiyasi mavjud emas, bu konstruksiya faqat fe'l boshqaruvida kelgan predlogi bilan hosil bo'ladi. Ya'ni , yuqoridagi jumlada

Jumlasining ma'nosi predlogiga bevosita bog'liq.

U kechga qo'nganligi daqrsda ishtrok etmadi.

Ergash gapli qo'shma gaplar ichida ega ergash gap qo'llanishko'lami bo'yicha qo'shma gaplarning keng yoyilmagan va istemolda kam qo'llanadigan turi hisoblanadi.

Odatda ega ergash gap bosh gapga nisbiy olmoshlar (ما الذي) va shuningdek أَنْ yoki أَنْ yuklamalari yordamida ham birikishi mumkin.

Bunda ko'pincha bosh gap shaxsi noma'lum bo'lgan أَنْ yuklamasi ishtrok etgan quyidagi iboralardan tashkil topadi.

Mumkin yoki mumkinki,...مُمْكِنٌ أَنْ (أَنْ)

zarur , yoki zarurki...لَا بُدَّ مِنْ أَنْ , لَا بُدَّ أَنْ

U qila oladiki, ...بِمُكَانِهِ أَنْ

....maslik kerak.لَا يَجُوزُ أَنْ

zarur, zarurki...مِنْ الْوَاجِبِ أَنْ , مِنْ الصَّرُورِيِّ أَنْ , عَلَى أَنْ

.... Kitilayotirki,kutish mumkinki.مِنْ الْمُتَوَقَّعِ أَنْ

...المطلوب أَنْ Talab qilinadi.(kerak)

Men seni ehtiyot qilishim kerak.مِنْ الْوَاجِبِ أَنْ أَرَاكَ

Seni hozir soliqni to'lashing talab qilinadi.وَمِنْ الْمَطْلُوبِ أَنْ تَدْفَعَ الصَّرِيَّةَ

Biz darslarimizni yodlashimiz kerak.لَا بُدَّ لَنَا أَنْ نَحْفَظَ دُرُوسَنَا

Yangi so'zlarni unutmasliging kerak.لَا يَجُوزُ أَنْ تَنْسَى الْكَلِمَاتِ الْجَدِيدَةَ

– مِنْ الْمُطَوَّقِ أَنْ يَصِلَ إِلَى طَشَقَنْدَ وَفْدُ عُلَمَاءِ التَّارِيخِ الْعَرَبِيِّ فِي أَوَاخِي الشَّهْرِ الْقَادِمِ –
Kelasi oyning oxiriga Toshkentga arab tarixchilari delegatsiyasining kelishi kutilmoqda.

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki أَنْ yuklamasining ega ergash gapli qo'shma gaplarda qo'llanishi sermahsuldir.

أَنْ yuklamasi bilan qo'llaniladigan konstruksiyalarni istisno ergash gaplar tarkibida ham ko'rish mumkin. Bular quyidagilar: أَنْ , بِدُونِ أَنْ , بَدَلِ أَنْ va boshqalar.

Istisno ergash gap bosh gapdagi ish -harakatning harakterini o'zidagi ish-harakatning bajarilmagani holda amalga oshganligini bildirish orqali ifodalanadi. U bosh gapdan keyin keladi va biz yuqorida keltirgan konstruksiyalar bilan boshlanadi.

خَرَجْتُ مِنَ الْغُرْفَةِ دُونَ أَنْ أَقُولَ شَيْئًا.

Men hech narsa demasdan xonadan chiqdim.

ذَهَبَ إِلَى جَزِيرَةِ الْعَرَبِ مِنْ غَيْرِ أَنْ يَغْلُمَ عَادَاتِ الْعَرَبِ وَأَخْلَاقَهُمْ.

U arablarning odatini va axloqini o'rganmay turib, Arabiston oroliga jo'nadi.

استطاع دراسة اللغة العربية بدون أن يكون في البلدان العربية.

U arab mamlakatlarida bo'lmay turib, arab tilini o'rgana oldi.

أَنْ yuklamasi payt ergash gaplarda ham sermahsul turli ma'nolarni ifodalovchi konstruksiyalar tarkibida qo'llaniladi.

va boshqalar. قَبْلَ أَنْ , بَعْدَ أَنْ , إِلَى أَنْ , مُنْذُ أَنْ

Arab tilida payt ergash gap bosh gapdan oldin ham keyin ham kelishi mumkin. Payt ergash gap yuqorida zikr etilgan konstruksiyalar bilan boshlanadi.

وَلَكِنَّهُ كَثِيرًا مَا يَفْهَمُ مَا نُرِيدُ أَنْ نَقُولَ قَبْلَ أَنْ نَتَرَجِّمَ.

Biroq u biz aytmoqchi bo'lgan narsani tarjima qilmasimizdan avval tushunardi.

قَبْلَ أَنْ قُلْتُ لَهُ هَذَا طَنَنْتُ طَوِيلًا.

Bu haqda unga aytishdan oldin uzoq o'yladim.

مُنْذُ أَنْ أَعْرِفَهُ يَشْتَغِلُ دَائِمًا بِالرِّيَاضَةِ.

Men uni bilganimdan beri, u doimo sport bilan shug'ulanadi.

تَعَرَّفْتُ بِهِ بَعْدَ أَنْ وَصَلْتُ إِلَى مُوسْكُو

Men u bilan Moskvaga kelganimdan keyin tanishdim.

لَا يُغْلِي الْمَاءُ إِلَى أَنْ يَبْلُغَ دَرَجَةَ الْحَرَارَةِ إِلَى الْمِئَةِ.

Harorat 100⁰ ga yetmaguncha, suv qaynamaydi.

Yordamchi so'zi payt ergash gapdagi ish-harakatning tugashi bilanoq, bosh gapning ish-harakati boshlanishini bildiradi. Bunda konstruksiyaning qismi payt ergash gap, qismi bosh gap oldiga qo'yiladi. Mas:

مَا أَنْ سَمِعْتُ عَنْ يَوْمِ مِيلَادِهِ حَتَّى اشْتَرَيْتُ لَهُ الْهَدِيَّةَ.

Uning tug'ilgan kuni haqida eshitganim bilanoq, unga sovg'a sotib oldim.

أَنْ yuklamasi yaqinlikni anglatuvchi fe'llardan keyin ham qo'yilishi mumkin. M-n:

عَسَى أَنْ يَكُونَ ذَلِكَ.

Ehtimol bu bo'ladi (amalga oshadi)

أَوْشَكَ أَنْ يَقُولَ الرَّبِيعُ.

Bahor ham boshlanay(kirishay) deyapti.

كَادَ أَنْ يَهْلِكَوا.

Ular o'layozdilar.

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdi أَنَّ yuklamasi mustaqil holatda va murakkab sintaktik konstruksiyalar hosil qilib, har tomonlama chuqur va sermazmun fikrlarni ifoda etish uchun qo'llanar ekan.

Nazorat savol va topshiriqlar

1. أَنَّ yuklamasi mustaqil holatda qachon qo'llaniladi?
2. قَبْلَ أَنْ , إِلَى أَنْ , لِأَنْ , مُنْذُ أَنْ konstruksiyalari qaysi ergash gaplar tarkibida qo'llaniladi?
3. بِفَضْلِ أَنْ , بِسَبَبِ أَنْ konstruksiyalari qanday ma'nolarni ifodalaydi?

Mustaqil ish topshiriqlari

اَنَّ yuklamasi yordamida yasalgan konstruksiyalar ishtrokida matn tuzing. Konstruksiyalarning ma'no va grammatik vazifalarini sharhlang.

Asosiy adabiyotlar:

1. Grande B.Mning "kurs arabskogo yazika v sravnitel'nogo istoricheskogo" M. 1998.
2. Ibrohimov N. Yusupov M "Arab tili grammatikasi" Toshkent 1997.
3. E. Talabov. "Arab tili" Toshkent 1993.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. M.Mamedov "Uchebnik arabskogo yazika".Boku 1986 y
- 2 E.Bobilyova "Arabskiy yazik v sintakticheskix konstruksiyax".Moskva 1998g

Mavzu: №3 Ergashgan qo'shma gapli jumalarda qo'llanadigan konstruksiyalar

Dars o'quv maqsadi: Talabalarda ergash gaplar va ular tarkibida qo'llaniladigan konstruksiyalar haqida amaliy va nazariy ko'nikmalarni shakllantirish.

Tushunchalar va tayanch iboralar:

1. حيثما
2. أينما
3. ولو
4. وإن
5. رغم أن
6. بعد أن
7. قبل أن
8. دون أن


Asosiy savollar:

1. Ergashgan qo'shma gap tarkibi
2. Aniqlovchi ergash gap
3. Ega ergash gap
4. To'ldiruvchi ergash gap
5. Shart ergash gap
6. To'siqsiz ergash gap
7. Payt ergash gap
8. O'rin ergash gap
9. Sabab va maqsad ergash gap

Ma'lumki, bog'langan qo'shma gapni tashkil etuvchi sodda gaplar o'zaro teng bog'lanadi va biri ikkinchisiga tobe bo'lmaydi.

Ergashgan qo'shma gapni tashkil etuvchi sodda gaplarning biri ikkinchisiga tobe bo'lib, uni to'ldirib, aniqlab yoki boshqa tomondan xarakterlabkeladi. To'ldirib yoki kniqlanib kelayotgan gap bosh gap, tobe gap esa ergash gap deyiladi. Ergash gap bosh gapni qaysi tomondan xarakterlab kelayotganligiga ko'ra, bir necha turlarga bo'linadi. Arab tilida ergash gaplarning: Aniqlovchi ergash gap, ega

ergash gap, to'ldiruvchi ergash gap, shart ergash gap, to'siqsiz ergash gap, payt ergash gap, holat ergash gap, o'rin ergash gap, sabab va maqsad ergash gap, natija ergash gap, o'xshatish (ravish) ergash gap, istisno ergash gap kabi turlari mavjud.



1. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap tarkibi

Aniqlovchi ergash gap bosh gapdagi u yoki bu so'zning belgisini bildiradi va quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Aniqlovchi ergash gap bosh gapdagi qaysi bo'lakning belgisini bildirsa, bevosita shu bo'lakdan keyin keladi.

2. Belgisi bildirilib kelayotgan so'z aniq holatda bo'lsa, u bilan aniqlovchi ergash gap o'rtasiga nisbiy olmosh qo'yiladi. Nisbiy olmoshning birlik (m.z, m.n), ikkilik va ko'plik (m.z, m.n) shakllari mavjud.

Aniqlovchi ergash gap tarkibini quyidagicha ifoda etish mumkin.

Bosh gapnisbiy olmosh.....- ergash gap.

Aniqlanib kelayotgan gap bo'lagining aniq yoki noaniqligiga qarab nisbiy olmosh ishlatilishi ham yoki ishlatilmasligi ham mumkin.

Agar belgisi bildirilayotgan bo'lak aniqlovchi ergash gapning egasi bo'lmasa, shu so'z bilan jinsda va so'zda moslashgan birikma omosh aniqlovchi ergash gapdagi fe'lga yoki fe'ldan keyingi predlogga qo'shilib keladi. Bunday olmosh arab tilida ضمير عائد qaytuvchi olmosh deyiladi.

جاء الطالب الذي رايته في المسرح

Teatrd ko'rgan talaba keldi.

2. Ega ergash gapli qo'shma gap tarkibi

Ega ergash gapli qo'shma gaplarda ergash gap bosh gapning egasi vazifasini bajaradi. Arab tilida ega ergash gap bosh gapning kesimiga nisbiy olmosh yordamida bog'lanishi mumkin. Masalan:

ان الذي هذه الرسالة يدرس في كليتنا

Bu xatni yozgan (kishi) fakultetimizda o'qiydi.

Bunday ergash gapda ergash gap bosh gapdan avval ham keyin ham kelishi mumkin.

ان الذي

1. Bosh gap

2. ega ergash gap

ma yuklamasi bilan ifodalanganda esa ergash gap boshgapdan keyin qo'yiladi.

ما نقوله

يعجبني

2. ega ergash gap

1. Bosh gap

Ega ergash gap bosh gapga ان yoki ان yuklamalari yordamida ham birikishi mumkin. Bunda ko'pincha bosh gap gap shaxsi noma'lum bo'lgan quyidagi iboralar (konstruksiyalar) dan tashkil topadi.

...من الممكن ان...mumkin yoki mumkinki...

...لا بد من ان...zarur yoki zarurki...

...لا شك ان...shubhasiz yoki shubhasizki...

-muqarrar yoki muqarrarki. من المقرر ان

Bosh gapning kesimi vazifasida kelgan ergash gap kesim ergash gap deyiladi. Kesim ergash gap bosh gapga ega ergash gap bog‘langan vositalar yordamida bog‘lanadi. Bularni faqat bosh gapda anglatgan ma’nosiga qarabgina farqlab olish mumkin. Masalan:

اولئك الذين آتيناكم الكتاب
bosh gap kesim ergash gap

O'shalar(dir) biz kitobni nozil qilgan odamlardir.
Kesim ergash gap

O'shalar shularki, biz ularga kitobni nozil qilganmiz. Bu misolda kesim ergash gap bosh gapga nisbiy olmosh yordamida bog'langan.

Kesim ergash gap bosh gapga 4 yuklamasi yordamida ham bog'lanish mumkin.

هَذَا مَا قَرَأْتَهُ الْإِسْبُوعَ الْمَاضِي
 Mana shu o'tgan haftada o'qiganimdir.

kesim ergash gap bosh gap

كل so'zi bosh gapning kesimidir.

Bosh gapning to'ldiruvchisi vazifasida keluvchi ergash gap to'ldiruvchi ergash gap deyiladi.

To'ldiruvchi ergash gap ham to'ldiruvchi javob bo'lgan savollarga javob bo'ladi.

Arab tilida to'ldiruvchi ergash gap bosh gapdan keyin keladi va bosh gapga quyidagicha bog'lanadi:

1. yuklamasi yordamida

سمعت ان هذا الطالب شاب مذهب

2. Agar biror sabab bilan to'ldiruvchi ergash gapning egasi bosh gapdan uzoqda bo'lsa va u ergash gapning kesimidan keyinga o'tgan bo'lsa, ان (ان) yuklamasiga III shaxs muzakkar birlik qo'shiluvchi olmosh qo'shiladi va u tarjima qilinmaydi. Masalan:

اخبرو في المعلم انه توجد في غرفة الدرس تلك كثير الطاولات و الكراسي

O'qituvchi menga ma'lum qildiki, o'sha auditorichda ko'pgina stol va stullar mavjuddir.

3. To'ldiruvchi ergash gap bosh gapga الذى va uning hosila shakllari bilan ham bog'lanishi mumkin. Bu nisbiy olmoshlar to'ldiruvchi ergash gapning egasi bilan moslashadi.

اننى لا انسى الذين ساعدونى فى ايامى الصعبة

Qiyin kunlarimda menga yordam qilganlarni unutmayman.

To'ldiruvchi ergash gap bosh gapga ان yuklamasi yordamida ham bog'lanishi mumkin. Bunda to'ldiruvchi ergash gap fe'l kesimli gap bo'lishi kerak. Masalan: ارید ان تکتب لی رسالة Menga xat yozishingni hahlayman.

1. Real shartli bildiruvchi shart ergash gap oldidan ان، من، متى، إذا yuklamalaridan biri kelishi mumkin.

ان yuklamalari ishtirok etganda ergash gap gapdagi fe'l ham, bosh gapdagi fe'l ham yoki o'tgan zamonda yoki shart maylida keladi.

اذا yuklamasi ishlatilganida, har ikki gapdagi fe'l o'tgan zamonda keladi.

Odatda ergash gap bosh gapdan oldin keladi. Ba'zan bosh gapning mazmuniga ko'proq, e'tibor qaratilgan bo'lsa, bosh gap ergash gapdan oldin kelish mumkin. Masalan:

لست ميا لغا إذا قلت اننى مريض

Agar men kasalman desam mubolag'a qilmagan bo'laman.

Noreal shart ergash gapda ergash gap asosan birinchi o'rnida qo'yiladi.

bosh gap لو

6. To'siqsiz ergash gapli qo'shma gap tarkibi

To'siqsiz ergash gap bosh gapdagi ish-harakatning amalga oshishiga to'sqinlik qiladi, lekin shunga qaramay, bosh gapdagi ish-harakat amalga oshgan bo'ladi yoki amalga oshadi.

Ara tilida to'siqsiz ergash gap bosh gapdan oldin ham, keyin ham, bosh gapning o'rtasida ham kelishi mumkin. Bunda to'siqsiz ergash gap oldidan quyidagi yordamchi so'zlar kelishi mumkin.

1. ان, و إذا, و لئن
2. رغم ان, بالرغم من ان, مع ان
3. مهما, و لو
4. نima - ايما, kim bo'lsa ham, ايمن

bo'lsa ham.

7. Payt ergash gapli qo'shma gap tarkibi

Bosh gapdagi ish-harakatning bajarilishi paytini bildiruvchi ergash gap payt ergash gap deyiladi. Arab tilida payt ergash gap bosh gapdan oldin ham, keyin ham kelishi mumkin. Payt ergash gap quyidagi yordamchi so'zlar bilan boshlanadi:

1. yordamchi so'zi ergash gapdagi ish-harakatning bir necha marta takrorlanganligini bildiradi. Masalan:

كلما جئت اليه كان يقرأ كتابا او مجلة

Har safar unikiga kelganimda, u kitob yoki jurnal o'qiyotgvin bo'lardi.

2. yordamchi so'zlari bosh gapdagi ish-harakat ergash gapdagi ish-harakatdan keyin sodir bo'lganligini bildiradi.

3. Bosh gapdagi ish-harakat payt ergash gapdagi ish-harakatdan oldin sodir bo'lsa kabi yordamchi so'zlar ishlatiladi. Masalan:

قبل ان تقول شيئا فكر طويلا.

4. yordamchi so'zi payt ergash gapdagi ish-harakatning tugashi bilanoq bosh gapning ish-harakati

boshlanishini bildiradi va qismi payt ergash gap, qismi bosh gap oldiga qo'yiladi.

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, ergash gap qo'shma gaplar tarkibida konstruksiyalar juda muhim o'rin tutadi.

Ular jumlada asosan ergash gap tarkibida ishtirok eti, bosh gap bilan ergashgan qo'shma gaplar o'rtasida ajratuvchi grammatik vosita va ma'no beruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Nazorat savol va topshiriqlar:

1. Ega ergash gapli qo'shma gaplarda qanday konstruksiyalar qo'llaniladi?
2. Sabab va maqsad ergash gaplarda qanday grammatik konstruksiyalar qo'llaniladi?
3. konstruksiyalari qaysi ergash gapli qo'shma gap tarkibida qo'llaniladi?
4. konstruksiyalari qaysi ergash gapli qo'shma gaplar tarkibida qo'llaniladi?

Mustaqil ish topshiriqlari:

O'xshatish ergash gapli qo'shma va istisno ergash gapli qo'shma gap tarkibidagi sintaktik tarkibotlarni sharhlang.

Asosiy adabiyotlar:

1. B. Grande . Kurs arabskoy gramatiki v sravnitelno – istoricheskoy osveshenii. M. 1998g.
2. N.Ibragimov, M.Yusupov "Arab tili grammatikasi" T.1997y.
3. E.N.Mishkurov. Morfologicheskoy stroy sovremennogo arabskogo yazika. T.1992g.
4. G.Sh.Sharbatov. Sovremenniy arabskiy yazik. M.-1982g.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Kuzmin K. "Uchenik arabskogo yazika" M. 2003g
2. Imad Xatim "اللغة العربية" طرابلس 1984

3. Mishkurov E.N, A. T. Raufova. Morfologicheskii stroy sovremennogo arabskogo yazika T. 1992 g.

4. Sunnatulloh Bokpo'lat. "Arab nahvi" T. 2007y.

Mavzu: №4 "إذا" yuklamasi bilan yasaladigan konstruksiyalar

Dars o'quv maqsadi: إذا va shunga o'xshash yuklamalar va ular yordamida yasaladigan konstruksiyalarning tarjima xususiyatlari bo'yicha talabalarda ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Tushuncha va tayanch iboralar.

1. إذا، إذا ما
2. إلا إذا
3. وإذا هو
4. Real shart ergash gap
5. Payt ergash gap;

Asosiy savollar:

1. "إذا" yuklamasining mustaqil holatdagi funksiyasi va semantik xususiyati.
2. "إذا" yuklamasi bilan yasaladigan konstruksiyalarning tarjima xususiyatlari.
3. "إذا" yuklamasining payt ergash gapdagi tarjima xususiyatlari.

"إذا" yuklamasi ergash gap tarkibida ham qo'llanadi. Shart ergash gap tarkibida qo'llanilganda, ergash gapning boshiga qo'yiladi. Undan keyin fe'l ham, bosh gapdagi fe'l ham o'tgan zamon shaklida turadi.
إذا جئت إلى مساء ذهبنا إلى المسرح – Kechqurun menikiga kelsang, teatrga boramiz.

Jumlalar tarjimasidan ko'rinib turibdiki, bosh va ergash gapdagi fe'llar o'tgan zamon shaklida bo'lsa ham, tarjimada hozirgi-kelasi zamon shaklida tarjima qilinadi.

إذا كتبت رسالة لي كتبت لك أيضا

Sen menga xat yozsang, men ham senga yozaman.

Shart ergash gapdagi inkorni ifoda etish uchun hozirgi-kelasi zamon fe'lining oldidan "لم" yuklamasi qo'yiladi.

إذا لم تذهب اليوم إلى الملعب زرتك

Agar sen bugun stadiongga bormasang, men seni ziyorat qilaman.

إذا لم تسافر إلى القاهرة التقيت بك صباح غد.

Agar sen Qohiraga safar qilmasang, sen bilan ertaga ertalab uchrashaman.

“ف” yuklamasi quyidagi holatlarda bosh gapga qoʻshilishi mumkin.

1. Shart ergash gapdgi bosh gap soʻroq mazmunga ega boʻlsa bosh gapdagi soʻroq yuklamasi oldidan “ف” yuklamasi qoʻyiladi.

إذا قرأت هذا الكتاب فهل تحدثنا عنه؟

Bu kitonni oʻqisang, u haqda bizga gapirib berasanmi?

2. Bundan tashqari bosh gapdagi feʼl buyruq, xohish, istak, man etish maʼnolarini ifoda etishda ham “ف” yuklamasi bosh gapning kesimi (feʼl) ga qoʻshiladi

إذا كنت في مصرفزر آثارها التاريخية من كل بلد.

Agar sen Misrda boʻlsang, sen uning tarixiy obidalarini albatta ziyorat qil.

إذا لم تكن مشغولا اليوم فلنذهب الي ضواحي المدينة.

Agar sen bugun band boʻlmasang, shahar chekkasiga boraylik.

3. Agar bosh gapning kesimi hozirgi-kelasi zamonda boʻlsa ham “ف” yuklamasi qoʻyiladi.

إذا ذهبت الي المسرح فإذهب معك

Agar sen ertaga teatrga borsang, men sen bilan boraman.

4. Bosh gapdagi feʼl modallikni ifoda etganda ham “ف” yuklamasi qoʻyiladi.

إذا دخلت هذه الجامعة فيجب علي أن أدرس اللغات الشرقية.

Agar men ushbu universitetga niksam, sharq tillarini oʻrganishim kerak.

إذا كان يدرس اللغة العربية والبلاد العربية فهو مستعرب.

Agar u arab tili va arab mamlakatlarini oʻrganayotgan boʻlsa, u arabshunosdir.

Baʼzan shart ergash gapli qoʻshma gapda bosh gapning mazmuniga koʻproq eʼtibor qaratilgan boʻlsa, bosh gap ergash gapdan oldin kelishi dam mumkin.

لست مبالغا إذا قلت أن العرب من أقدم الأقسام.

Agar arablar eng qadimgi xalqlar(millatlar)dan desam, mubolagʻa qilmagan boʻlaman.

أكتب إذا أردت.

Agar xohlasang, yoz.

Ergash gapning tarkibi oʻzgarmagan holda “ف” yuklamasi “qachonki”, klassik matnlarda, xususan Qurʼoni Karim oyatlarida esa “vaqtiki” deb tarjima qilinib, payt ergash gapni ifoda etadi.bunda u shart maʼnosida emas, xol sifatida xizmat qiladi.

U ketganida (ketsa), men senga bor haqiqatni aytaman.

أنت تتصرف أخبرك بتأحيقة

Va vaqtiki jannat yaqinlashtirilsa, har bir nafas(shaxs) (bu kun uchun) nima hozirlanganini biladi.

أذهب الي البلد إذا طلعت الشمس.

Quyosh chiqqanda shaharga boraman.

Shaharga quyosh chiqqanda boraman.

“إذا” yuklamasidan keyingi ot oʻtgan zamonda kelib. Bosh gapdagi feʼl hozirgi- kelasi zamonda qoʻyilishi mumkin.

تنت تتهجد الطالب يكون عالما

“إذا” yuklamasi kutilmaganda, favqulotda yuz bergan hodisa haqida xabar berish uchun ishlatiladi.

خرجت عن البيت فإذا الناس مجتمعون.

Men kutilmaganda odamlar toʻplanib turganida uydan chiqib qoldim.

جنت الي صاحبي فإذا هو يشتغل في بستانه

Men kelganimda doʻstim bogʻda ishlayotgan ekan.

Yuqoridagi misollardan koʻrinib turibdiki, “ف” yuklamasi nafaqat shart ergash gaplar tarkibida, balki payt va toʻsiqsiz ergash gaplar tarkibida ham keladi.

“إذا” yuklamasi “ف” yuklamasi bilan kelib shart mazmunini ifoda etadi

Agar sen yozsang, men yozaman.

إذا ما تكتب اكتب

Agar taqvo qilsang maqoming koʻtariladi.

إذا ما ترق ترق

Taʼlim olsang peshqadam boʻlasan.

إذا ما تعلم تتعلم

Nazorat savol va topshiriqlari:

1. “إذا” yuklamasi “ما” yuklamasi bilan kelganda jumlada qanday tarjima qilinadi?

2. “ف”konstruksiyasi qanday tarjima xususiyatlariga ega?

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. “إذا...” yuklamasining toʻsiqsiz ergash gap tarkibida qoʻllanishini sharhlang.

2. “إذا” yuklamasi ishtrok etgan toʻsiqsiz ergash gaplar ishtrokida matr tuzing.

Mustaqil ish topshiriqlari:

إذا yuklamasi yordamida yasalgan konstruksiyalarning Qu'oni karim oyatlarida ifodalanishi va ularning ma'nolarini sharhlang.

Asosiy adabiyotlar:

1. E.P.Bobileva. Arabskiy yazik a sintakticheskix konstruksiyax. M.-2002g.
2. Grande B. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno-istoricheskoy osvechenii. -M., 1998.
3. Mamedov E. Uchebnik arabskogo yazika. - Baku, 1984.
4. N.Ibragimov, M.Yusupov "Arab tili grammatikasi" T.1997y.
5. E.N.Mishkurov. Morfologicheskiy stroy sovremennogo arabskogo yazika. T.1992g.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Arab tili darsligi (tarkib qoidolari) "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi. T.2009y.
2. O.Musaev. Arab tili asosiy qoidalar tizimi. T.-2000y.
3. Muhammad Fatih. قواعد اللغة العربية. بغداد-1975م.
4. مصطفى أمين وعلى جازم "النحو الواضح". بغداد 1998م.

Mavzu: №5 كان وأخواتها fe'llarning hozirgi zamon fe'llari bilan sintaktik munosabatlari

Dars o'quv maqsadi: كان وأخواتها fe'llar bilan yasaladigan murakkab fe'l zamonlari haqida talabalarda tushuncha va ko'nikmalar hosil qilish.

Tushunchalar va tayanch iboralar:


1. كان، أصبح، ظلّ، ما زال
2. Davomli o'tgan zamon;
3. uzoq o'tgan zamon;
4. kelasi taxmin zamon

Asosiy savollar:

1. Fe'l zamonlari haqida umumiy ma'lumot;
2. Uzoq o'tgan zamon fe'llari (كان قد فعل konstruksiyasi);
3. O'tgan zamon davom fe'li (كان فعل konstruksiyasi);
4. Hozirgi zamon davom fe'li (لا يزال فعل konstruksiyasi);
5. Kelasi zamon taxmin fe'li (يكون قد فعل konstruksiyasi);
6. Davomiylikni anglatuvchi fe'llar bilan yasaladigan konstruksiyalar (ما برح يفعل).

Ma'lumki, fe'l o'zining mazmun-mohiyati bilan ish-hirikatning ma'lum bir vaqtda bo'lib o'tgani, bo'lib o'tajagini anglatadi. Demak bajarilayotgan ish-harakat vaqt, zamon tushunchalari bilan bevosita bog'liq bo'ladi. "Fe'l bildirgan ob'ektiv harakatning tilidagi ifodasi bo'lganidek, fe'llardagi zamon ish-harakatning bajarilishi bilan aloqador bo'lgan ob'ektiv vaqtning ifodasidir. Lekin ob'ektiv zamonning tildagi ifodasining o'zi grammatik zamon kategoriyasi hisoblanmaydi. Grammatik zamon kategoriyasi harakatning nutq momentiga munosabatini ifodalaydi. Nutq momenti ham sub'ekt tomonidan belgilangan qandaydir vaqt bo'lagi bo'lmay, ob'ektiv zamon (vaqt)ning so'zlovchi gapi, so'zi (nutqi) to'g'ri kelgan bo'lagidir. Harakat bajarilishi vaqtning nutq momentiga munosabatiga

qarab fe'lining uch xil zamoni farqlanadi: 1) Nutq momentiga bo'lgan ish-harakat – o'tgan zamon; 2) Nutq momentida ham davom etayotgan (tugallanmagan) ish-harakat – hozirgi zamon; 3) Nutq momentidan keyin sodir bo'ladigan ish-harakat – kelasi zamon ma'nolari maxsus formalar orqali ifodalanadi va formalar fe'lining zamon formalari deb ataladi.”¹



اقتران Arab nahvchilari fe'lining asosiy xususiyatlaridan biri uning "vaqtli hodisaning zamon bilan bog'liqligi" dadir deb hisoblaydilar va arab tilidagi fe'l zamonlariga quyidagicha ta'rif beradilar:

Fe'l – ينقسم الفعل بالنظر إلى الزمان ووقوعه ثلاثة أقسام: ماضٍ، مضارع وأمر zamoniga ko'ra uchga bo'linadi: o'tgan, hozirgi-kelasi va buyruq.

Ko'pgina mavjud darsliklarda fe'l zamonlari 2 ga bo'linadi:

hozirgi-kelasi zamon – المضارع – o'tgan, الماضي

Fe'l morfologik nuqtai nazardan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Tuzilishiga ko'ra sahih (to'g'ri) va mu'tal (illatli) fe'llar;
2. Tarkibiga ko'ra mujarrad (1-bob fe'li dastlabki ko'rinishga ega bo'lgan fe'llar) va mazid (hosila fe'llar);
3. zamondagi ifodasiga ko'ra – o'tgan, hozirgi-kelasi zamon va buyruq fe'li;
4. ta'sir ko'rsatadigan omiliga ko'ra – o'timli va o'timsiz;
5. Foiliningbor-yo'qligiga qarab aniq va majhul darajada bo'ladi;
6. Tuslanishiga ko'ra tuslanmaydigan va tuslanadigan fe'llarga bo'linadi.

Uzoq o'tgan zamon fe'li (كان فاعلاً كان قد فعل) konstruksiyasi

Arab tilida murakkab fe'l zamonlari إن وأخواتها guruhidagi fe'llar yordamida ifodalanadi. Bular fe'llarga ما زال، ما دام، ما كان، أصبح، ظل، ما انفك kabilar mansub bo'lib, ular murakkab zamon qurilmalarini yasashda yordamchi fe'l vazifasini bajaradi va asosiy mazmunni anglatuvchi fe'ldan oldin qo'yiladi.

Ma'lumki, u yuklamasi o'tgan zamon fe'li oldidan kelsa, u ish-harakatning batamom tugallanganligini ifodalaydi. Bunda perfekt (o'tgan zamon fe'li) ushbu bklama orqali ish-harakatni nutq vaqtidan o'tgan zamonga o'tkazadi. Masalan:

قد ذكرنا ذلك – Biz buni (allaqachon) eslab o'tdik.

وإني قد رأيت رجلاً خرج من عندك – Men hozirgina senikidan chiqayotgan kishini ko'rdim.

Agar jumla butunlay o'tgan zamonga tegishli bo'lsa, u holda perfekt قد yuklamasi hamda و bog'lovchisi bilan gapdagi boshqa fe'llarga nisbatan uzoq o'tgan zamonni bildiradi, ya'ni boshqa fe'l ifodalaydigan ish-harakatdan avval sodir bo'lgan ish-harakatni bildiradi. Masalan:

خرجت من البيت وقد طلعت الشمس – Men uydan chiqqunimga qadar quyosh chiqib bo'lgandi.

خرجت من البيت وطلعت الشمس

¹ Хожиев А. Феъл. “Фан”. 1973й. 128-бет.

Ikkinchi jumlada **قد** yuklamasi berilmagan va holat voqealarning davomiyligi yoki bir vaqtda sodir bo'lganligini bildiradi. Shuning uchun ushbu jumlaning "Men uydan chiqqanimda quyosh ham chiqdi" deb tarjima qilinsa, mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Ba'zan fe'llar birikuvchi bog'lovchiga ega bo'lmasligi ham mumkin.

وجدته قد عمي – Men uni o'jiz bo'lib qolganida topdim (ko'rdim). (So'zma-so'z: "Men topdim, u esa bu vaqtgacha o'jiz bo'lib qolgan edi").

Arab tilida uzoq o'tgan zamon mazmuni o'tgan zamon shaklidagi to'liqsiz fe'l va tugallangan o'tgan zamon shaklidagi asosiy fe'l vositasida anglatiladi. Uning umumiy qurilmasi **كان قد فعل** dir.

Uzoq o'tgan zamon murakkab fe'li ish-harakatning oddiy o'tgan zamonda ifodalanganidan ancha ilgari ro'y berganini tasdiqlaydi. O'zbek tiliga o'tgan zamon sifatdoshi va to'liqsiz fe'l bilan tarjima qilinadi. Ba'zi tillarda tarjimada o'zbek tilida tarixiy o'tgan zamondan ham foydalansa bo'ladi:

كانت الولايات المتحدة قد احتاجت لمضاعفة حجم انتاج المنتجات الصناعية إلى 18 سنة - Qo'shma shtatlarga sanoat ma'sulotlari ishlab chiqarish hajmini ikki barobar o'stirish uchun 18 yil kerak bo'lgan edi.

كانت قد تطورت بين البلدين التجارة المفيدة للطرفين - Har ikki mamlakat o'rtasida ikki tomon uchun foydali savdo muvaffaqiyatli rivojlangan edi.

Uzoq o'tgan zamon qurilmasidan ta'lim bir ish-harakatdan oldin yuz bergan boshqa ish-harakatni ifodalash uchun ham qo'llanilishi mumkin. Biroq u holatda ko'pincha so'zlovchidan avvaldan ma'lum bo'lmay, keyinchalik amalga oshirilgan (bajarilgan) ish-harakat ifodalanadi. Bunday birikmani o'zbek tiliga o'girishda hikoya zamonning "ekan" to'liqsiz fe'li ishtirokidagi qurilmadan foydalanish maqsadga muvofiq.

عندنا استيقظ محمد من نومه كان إخوانه قد ذهبوا إلى الصيد - Muhammad uyg'onganida uning akalari allaqachon ovga ketib volgan edilar.

² Э.Талабов. Араб тили. Т.1992й. 312-бет.

Bu konstruksiya **كان فعل** shaklida ham bo'lishi mumkin:

كان أنور حضر له طعام الغداء - Anvar unga tushlik taom tayyorlagan edi.

O'tgan zamon davom fe'li (tugallanmagan o'tgan zamon)

Arab tilida sodda (oddiy) – sintetik fe'l shakllaridan tashqari zamonni ifodalovchi murakkab (analitik) fe'l formalari ham mavjud bo'lib, bular ish-harakat yoki holatning o'tgan zamon, hozirgi-kelasi zamon yoki kelisi zamonda tugallanganlik yoki tugallanmaganlik mazmunini ifoda etishda qo'llaniladi. Murakkab zamondagi fe'l mazmunlari yordamchi so'zlar – yuklamalar **سوف**, **بم**, **بم**, **بم** bog'lovchilar – vositasida to'ldiriladi.

Arab nahvchilari bu yordachi so'zlar tarkibiga **لن**, **لم** yuklamalarini ham kiritadilar. Biroq bu grammatik vositalar murakkab fe'l zamonining mazmunini har tomonlama ochib bera olmaydi. Shuning uchun ham buni amalga oshirish uchun arab tilida ko'makchi fe'llardan ham unumli foydalaniladi. Biroq arab tilida doimo ko'makchi bo'lib keladigan fe'llar mavjud emas, zero ko'makchilik vazifasini bajaruvchi fe'l ayni bir paytda o'zining mustaqil to'liq ma'nosi mazmuniga ham egi.

Arab fe'llarining murakkab zamon konstruksiyalarining xususiyati shunday iboratki, bu konstruksiyalarning har ikkala elementi fe'llarning shaxs-son ko'rsatkichini ifodalagan holda shu shaxs sonda bir vaqtning o'zida tuslanishi mumkin.³ Ko'makchi fe'llarning boshqa so'zlar bilan bir tarkibni tashkil qilishda 2 asosiy xususiyat mavjud.

1. Ko'makchi fe'l gaplarda to'liqsiz fe'l mazmunini ifodalaniishi mumkin. Bu holda u o'zidan keyin kelayotgan tushum kelishigidagi ikki ko'makchi boshqaruvidagi biror ism (masalan, sifatdosh) – kesimni talab qiladi.

2. Ko'makchi fe'l gaplarda asosiy mazmunni ifodalovchi fe'llardan oldin keladi va u bilan jins, son va shaxsda umumiy qoida

³ А.А.Каволев, Г.Ш.Шарбагов. Учебник арабского языка. М.Авосточная литература. РАН. 1998г. Стр.-569.

asosida moslashib, murakkab fe'liy kesimning bo'lagini tashkil etadi. Ko'makchi fe'llar o'z mazmuniga ko'ra 4 guruhga bo'linadi:

- a) "boshlamoq" mazmunini ifodalovchi fe'llar;
- b) "davomiylik" va "uzluksizlik" ma'nolarini ifodalovchi fe'llar;
- v) "bo'lmoq", "bo'lib qolmoq" mazmunini ifodalovchi fe'llar;
- g) "bo'sag'a" mazmunini ifodalovchi fe'llar.

Arab nahvchilari بات، أمسى، أصبح، ظلّ، fe'llarini bevosita o'z ma'nolariga ko'ra bu fe'llarda vaqt ko'rsatkichi borligini ta'kidlaydilar.

Murakkab zamon formalaridan biri uzoq o'tgan zamon davom fe'li bo'lib, u konstruksiyasida ifodalanadi.

Mazkur grammatik qurilma orqali ish-harakat yoki voqea-hodisalarning o'tgan zamon davomli holatda bo'lib o'tganligini anglatadi. Bunda fe'li o'tgan zamonda olinib, asosiy ma'no anglatuvchi fe'l hozirgi-kelasi zamonda qo'yiladi.

1. Ma'lum lahza bilan bog'liq bo'lmagan, davr bilan chegaralanmagan ish-harakat jarayonini ifodalaydi:

1. Ma'lum lahza bilan bog'liq bo'lmagan, davr bilan chegaralanmagan ish-harakat jarayonini ifodalaydi:

Uning soqoliga oq oralagan edi.

U dinga – فهو حسب نشأته الدينية الشديدة كان يقضي معظم وقته في المسجد berilgani uchun qimmatli vaqtining ko'pini masjidida o'tkazardi.

2. Uzoq davom etgan yoki takrorlanib turadigan ish-harakatni ifodalaydi:

– كنت أفتح عيني في الصباح فكان يستيقظني بالقاء وكانت تسيل ألعانة على القلب
Tongda ko'zimni ochardim, u meni qo'shiq bilan uyg'otar, qalbinga ohanglarni sizib (oqib) kiritardi.

Bu konstruksiya tarkibidagi yordamchi fe'l dan avval قَدْ yuklamasi ham qo'yilishi mumkin. Biroq bu kam uchraydigan holatlardan hisoblanadi:

Biz bilan bir qancha vaqt ikki kishi yashagan edi.

3. O'tgan zamon fe'llari bilan bir qatorda qo'shma gap tarkibida qo'llangan tugallanmagan o'tgan zamon qurilmasi o'zga bir ish-

harakatdan oldin boshlangan va uning jarayonidahali davom etayotgan (yoki takrorlanayotgan) ish-harakatni ifodalaydi:

في تلك السنوات الصعبة وبينما كان العمال يعملون في المعمل النسيج القديم بنت
الحكومة الشعبية لأجلهم معملًا كبيراً جديداً

O'sha og'ir yillarda ishchilar eski to'qimachilik fabrikasida ishlar ekanlar, (ishlagan chog'larida) xalq hukumati ular uchun yangi katta fabrika qurdi.

Tugallanmagan o'tgan zamonning ikkinchi shakli to'liqsiz fe'li va asosiy ma'no anglatuvchi fe'lning o'rni aniq darajadagi noaniq holda tushum kelishigidagi schifatdosh ishtirokida yasaladi, ya'ni, [كان فاعلاً].

Qurilmaning har ikki qismi ham son va jinsda ega tabiatiga monandlashib, shakl o'zgartirib keladi. Bu turdagi tugallanmagan o'tgan zamon o'zida ifodalagan ish-harakatning uzoq davom etishiga ishora qiladi. Biroq sifatdoshlik qurilmasining asl mohiyati shundaki, u yuqorida keltirilgan sof fe'lnik qurilmadan farqli ravishda, tugallanmagan ish-harakatni jarayon sifatida emas, balki sub'ekning ma'lum davr bilan chegaralangan muvaqqat va o'zgaruvchan xossasi tariqasida ko'rsatadi:

كان جدي في تلك السنوات ذاهباً يومياً إلى المدينة وكان شاغلاً هناك في مصنع كبير
– Bobom o'sha yillari har kuni shaharga qatnar va u yerdagi katta zavodda ishlardi (ishlovchi edi).

Faqat fe'llardan yasalgan konstruksiyalarda inkor yuklama asosiy mazmun anglatuvchi fe'l oldidan qo'yiladi, sifatdoshlik qurilmalarida yordamchi fe'l oldidan qo'yiladi:

Bu o'quv fanini talabalar – كانت الطالبات لا يحبين هذه المادة الدراسية
yoqtirmas edilar.

Ustoz – عند ما دخل الأستاذ غرفة الدرس ما كنا جالسين على المقاعد بعد
darsxonaga kirganida biz ham o'rindiqlarga o'tirmagan edik.

Davomiylikni anglatuvchi fe'llar bilan yasaladigan konstruksiyalar

Hozirgi zamon davom fe'li – لا يزال يفعل

Bu konstruksiya davomiylikni anglatuvchi fe'llar yordamida yasaladi. Yordamchi fe'l sifatida ko'pincha **ma** fe'li qo'llaniladi. Mazkur konstruksiya yordamida hozirda amalga oshirilayotgan ish-harakatning davomiyligi anglashiladi. Bu konstruksiyada **ma** o'tgan zamonda o'tgan zamonda ham qo'yilishi mumkin:

Do'stim - صديقي محمد لا يزال يتعلم في جامعة طشقند الإسلامية
Muhammad hali ham (hamon) Toshkent islom universitetida ta'lim olyapti.

Biz hali ham piyoda yuripmiz. - ما زلنا نمشي ماشياً

ma davomiylikni anglatuvchi fe'l bilan yasaladigan konstruksiyalar

Arab tilida sintaktik konstruksiyalarda salmoqli o'rin tutuvchi davomiylikni ifodalovchi fe'llardan biri **ma** fe'li bo'lib, lug'aviy ma'nosi "davom etmoq, cho'zilmoq"dir.

U yordamchi fe'l mazmunida ish-harakatning davomiyligini anglatadi. Bunda u faqat davomiylikni ishora qiluvchi **ma** yuklamasi bilangina qo'llaniladi. Bu holda **ma** yuklamasi الدوامية deb ataladi. Masalana:

U hayot ekan... - ما دام حياً

Murakkab zamon qurilmalarini yasashda esa, bajarilayotgan ish-harakatning davomiyligini ifodalaydi. Qurilma tarkibida **ma** fe'li faqat o'tgan zamonda qo'llaniladi va asosiy ma'no anglatuvchi fe'l bilan moslashib keladi:

Ko'chada (hamon) piyoda yuribman. - ما دمت أسير في الشارع ماشياً

Ma'no jihatdan **ma** fe'liga yaqin turadi. Ba'zi o'rinlarda ularni bir-biri bilan **ma** fe'lidan keyin ot kesim kelsa, tushum kelishigida qo'yiladi. Bunda kesim o'rnida hozirgi-kelasi zamon fe'li ham qo'yilishi mumkin. Tarjimada **ma** fe'li o'zbek tiliga "hanuzgacha", "haligacha" (rus tilida "poka"), hali ham (rus tilida "vse yeshe") ma'nolarini anglatib keladi:

Devor hali ham - ما دام السور قائماً = ما زال السور قائماً
(qad ko'tarib) turibdi. (stena vse yeshe stoit).

ma shart mazmunini anglatuvchi bog'lovchi - yuklama mazmunida ham qo'llanilishi mumkin:

ما دمننا نضحك فنحن نحيا (أحياء). (ما دمننا نضحك فمعنى ذلك أننا نحيا)
Modomiki, biz kulayapmizmi, hayotmiz (Biz kulayotgan ekanmiz, buning ma'nosi biz hayotmiz).

Qalbimizda umid bor ekin, biz hayotmiz. - ما دام الأمل في قلوبنا فنحن نحيا (ما دمننا نأمل فنحن نحيا)

ma fe'li ish-harakatning tugallanganicha bo'lgan jarayonni ham aks ettirishi mumkin. Bunda u ish-harakat bilan bog'liq bo'lgan ob'ektdan oldin ham qo'yilishi mumkin. Tarjimada o'zbek tiliga "...maguncha" inkor-davomiylik qo'shimchasi bilan tarjima qilinadi.

Quyosh botmaguncha biz yemaymiz ham, ichmaymiz ham. - لن نأكل ولن نشرب ما دامت الشمس لم تغرب

ma o'rin-joydagi davomiylik (qoimlik)ni ham anglatishi mumkin. Bunda u o'rin-joy nomini anglatuvchi so'zdan oldin qo'yiladi.

Biz masjidida ekanmiz, biz - نحن نحس بأننا في بيت الله ما دمننا في المسجد
Allohning uyida ekanligimizni his qilamiz.

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, **ma** bilan qo'llaniladigan konstruksiyalarning ko'lami juda keng. Ular murakkab zamon orqali ifoda etilgan turli xil tusga ega bo'lgan ma'nolarni ifodalashda murakkab zamonning sermahsul komponenti hisoblanadi.

ma konstruksiyasi ظنَّ يَقَعْل

Bu konstruksiya yordamida o'tgan zamondagi ish-harakatning ma'lum vaqt (muddat)ga qadar davomiyligini ifodalaydi. Bunda yordamchi fe'l o'tgan zamonda, asosiy mazmunni anglatuvchi fe'l esa hozirgi zamonda qo'yiladi. Masalan:

Inson uzoq vaqt uchishni orzu qilib keldi. - ظل الإنسان يتشوق إلى الطيران

konstruksiyasi أَصْبَحَ يَفْعَلُ

Mazkur konstruksiya yordamida asosiy ma'no anglatuvchi fe'l orqali amalga oshirilayotgan ish-harakatning ma'lum vaqt (davr)ga kelib, amalga oshib taomulga aylangani tushuniladi.

ولكنَّ إِيَّانَ الأُسْرَةِ التاسعة عشر (حوالي 1400-1650 ق.م.) أَصْبَحُوا يجلسون على
davrida ular (misrliklar) yumshoq stullar (o'rindiqlar)da o'tiradigan bo'ldilar.

U ota-onasini tez-tez ziyorat qilib
turadigan bo'ldi.

Biz yanada sabrliroq bo'ldik.

Sizlarni tushunadigan bo'lib qoldik.

Kelasi-taxmin zamon (يَكُونُ قَدْ فَعَلَ)

Kelasi-taxmin zamon qurilmasi ketma-ket kelayotgan hozirgi-kelasi zamon shaklidagi to'liqsiz fe'l va o'tgan zamon shaklidagi asosiy ma'no bildiruvchi fe'l shakllari majmuasidan yasaladi. Asosiy ma'no anglatuvchi fe'ldan oldin qayd yuklamasi qo'yiladi.

Kelasi-taxmin zamon qurilmasi matnga yoki o'zi egallagan mavqega ko'ra mazmun kasb etadi.

Qo'shma gap tarkibidagi kelasi-taxmin zamon qurilmasi bir kelasi zamondagi ish-harakatdan oldin tugallanadigan boshqa bir ish-harakatni ifodalaydi.

قبل ما تقترب السفينة من هذه الكوكب تكون قد سجلت معلومات عن الحقل
kema bu yulduzga
yaqinlashuvidan oldin uning magnit maydoni va radiaktiv mintaqa haqidagi ma'lumotlarni qayd qilgan bo'ladi.

Biz uyga
kelganimizda onamiz bizga lazizatli taomlar tayyorlab qo'ygan bo'ladilar.

Qo'shma gaplar tarkibida qo'llanilgan kelasi-taxmin fe'l birikmasi kelgusida ro'y berayotgan ish-harakatning davomi yoki kelgusi zamonga taalluqli bo'lgan boshqa bir ish-harakatni ifodalaydi.

Bunda uning mazmuni va vazifasi o'zbek tilidagi kelgusi zamon gumon fe'linikiga mantiqan mos bo'ladi.

Fallohning
o'g'li shaharga yetib kelgach, qari tog'asinikiga kirishi mumkin.⁴

Shuningdek kelasi-taxmin zamon konstruksiya kelasi zamonga taalluqli bo'lgan va amalga oshirilishi gumon, taxmin, ehtimol tutilayotgan ish-harakat yoki holatni ifodalaydi.

Men uni ertalab soat 8 da kelsa
kerak deb aytdim.⁵

Kelasi-taxmin zamon konstruksiya yuqorida zikr etilgan konstruksiyalarga qaraganda kamroq qo'llaniladi. Bu konstruksiyalarning ko'pchiligi badiiy, ilmiy-ommabop adabiyotlarda uchraydi. O'zbek tilidagi murakkab zamon fe'llari arab tilidagidan boyroq va sermahsuldir.

Nazorat savollari va topshiriqlar

1. Kelasi zamon taxmin fe'li qanday konstruksiyalar yordamida ifoda etiladi?
2. konstruksiyasi nimani ifodalaydi?
3. konstruksiyasi nimani ifodalaydi?
4. Davomiylikni anglatuvchi fe'llar yordamida qanday murakkab zamonlar ifoda etiladi?

Mustaqil ish topshiriqlari:

Arab va o'zbek tilidagi murakkab zamon fe'llarini qiyosiy tahlil qilish.

Asosiy adabiyotlar:

1. E.P.Bobileva. Arabskiy yazik a sintakticheskix konstruksiyax. M.-2002g.
2. Grande B. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno-istoricheskoy osvechenii. -M., 1998.

⁴ А.Талабов. Араб тили. Т. "Ўзбекистон". 1993й. 315-бет.

⁵ الدكتور عماد خاتم. اللغة العربية: قواعد ونصوص. ليبيا-طرابلس. 1982م. ص-64

3. Mamedov E. Uchebnik arabskogo yazika. –Baku, 1984.
4. N.Ibragimov, M.Yusupov "Arab tili grammatikasi" T.1997y.
5. E.N.Mishkurov. Morfologicheskiy stroy sovremennogo arabskogo yazika. T.1992g.
6. G.Sh.Sharbatov. Sovremenniy arabskiy yazik. M.-1982g.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Yushmanov N.V. Grammatika literaturnogo arabskogo yazika. M.1985g.
2. Gabuchan G.M., Suxina T.I., Famichev V.D. Leksicheskiy minimum dlya nachalnogo etapa izucheniya arabskogo yazika. Podredaksiy A.V.Germanovicha. M.1997g.
3. Barnikova A.A. Arabskaya grammatika v tablisax i sxemax. M.2007g.

Mavzu: №6 "إن" yuklamasi bilan yasaladigan konstruksiyalar

Dars o'quv maqsadi: إن yuklamasi va u bilan yasaladigan konstruksiyalar haqida ma'umot berish hamda nazariy va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.

Tushunchalar va tayanch iboralar:

إن+فعل مضارع، إن لم، وإن

Asosiy savollar:

1. "إن" yuklamasining real shart ergash gaplar tarkibida qo'llanilishi.
2. Bosh gap oldidan "ف" yuklamasining qo'yilishi.
3. To'siqsiz ergash gaplarda "إن" konstruksiyasining qo'llanilishi.
4. إن لم+فعل مضارع konstruksiyasi.

Ma'lumki, shart ergash gap bosh gapdagi ish-harakatning amalga oshishi shartini bildiradi. Arab tilida ko'pincha shart ergash gap bosh gapdan oldin keladi.


Arab tilida shart ergash gap o'zbek tilidagidek real va noreal bo'ladi. Bunda asosan bosh gapdagi ish-harakatning amalga oshishi sharti nazarda tutiladi.

إن yuklamasi ergash gap tarkibida ishtirok etganda, ergash gapdagi fe'l ham, bosh gapdagi fe'l ham yoki o'tgan zamonda yoki shart maylida keladi. Lekin bu gapdan anglashilgan shart ma'nosi hozirgi yoki kelasi zamonga tegishli bo'ladi.

إن خرجت من الغرفة خرجت منها – Agar sen xonadan chiqsang, men ham chiqaman.

إن تخرج من الغرفة أخرج منها – Agar sen xonadan chiqsang, men ham chiqaman.

إن تسألوا كثيراً تعلموا كثيراً – Ko'p so'rasangizlar, ko'p bilasizlar.



Shart ergash gapda quyidagi hollarda bosh gap oldidan « » yuklamasi qo'yiladi.

1. Bosh gap ot kesimli gapdan iborat bo'lsa. Masalan:

bo'lsang, baxtlisan. – Agar sen bu falokatni ko'rmagan

2. Bosh gapdagi fe'l قد, سوف, س, kabi yuklamalar bilan, shuningdek, ما, yoki لن inkor yuklamalari bilan boshlangan bo'lsa:

– Agar sen ular uchun kechirim so'rasang, Alloh ularni hech qachon kechirmaydi.

3. Bosh gapdagi fe'ldan buyruq, iltimos, xohish-istak ma'nolari anglashilsa.

إذا تأخرت عن الدرس فلا تدخل غرفة الدرس

To'siqsiz ergash gaplarda وإن yordamchi so'z (garchi deb tarjima qilinadi) ko'llaniladi.

Arab tilida to'siqsiz ergash gap bosh gapdan oldin ham, keyin ham, bosh gapning o'rtasida ham kelishi mumkin.

Bu to'siqsiz ergash gap oldidan وإن, وإلا, kabi yordamchi so'zlar kelishi mumkin.

Biz garchi – إننا نعرف بعض الآثار التاريخية للأقطار العربية وإن لم نزرها bormagan (ziyosat qilmagan) bo'lsak ham, arab mamlakatlarining ba'zi tarixiy obidalarini bilamiz.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. إن لم + فعل مضارع nimani ifodalaydi?
2. وإن konstruksiyasi qaysi ergash gapda qo'llaniladi?
3. ما إن konstruksiyasi qanday ma'noni ifodalaydi?
4. ما إن حتى konstruksiyasi qanday ergash gapda qo'llaniladi?

Mustaqil ish topshiriqlari:

إن yuklamasining ergash gapli qo'shma gaplar tarkibidagi funksiyasini sharhlang.

Asosiy adabiyotlar:

1. B. Grande . Kurs arabskoy gramatiki v sravnitelno – istoricheskoy osveshenii. M. 1998g.
2. N.Ibragimov, M.Yusupov "Arab tili grammatikasi" T.1997y.
3. E.N.Mishkurov. Morfologicheskiy stroy sovremennogo arabskogo yazika. T.1992g.
4. G.Sh.Shabatov. Sovremenniy arabskiy yazik. M.-1982g.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. E.N.Mishkurov, A.R.Raufova. Morfologicheskoy stroy sovremennogo arabskogo yazik. M-1972g.
2. مصطفى أمين وعلى جارم "النحو الواضح". بغداد 1998م.

3. V.G.Lebedev. Arabskaya grammatika. Bazoviy kurs na russkom i arabskom yazike. M.1984g.

4. Sunnatulloh Bekpo'lat. Arab nahvi. T.2007y.

Mavzu: №7 عاد fe'li va u yordamida yasaladigan konstruksiyalar

Darsning o'quv maqsadi: عاد fe'lining asosiy fe'l bilan kelganda hosil bo'ladigan konstruksiyalarning tarjima xususiyatlarini nazariy va amaliy jihatdan o'rganish.

Tushunchalar va tayanch iboralar:

عاد + الفعل المضارع، عاد + الفعل الماضي، لم يعد + الفعل المضارع

Asosiy savollar:

1. عاد + الفعل المضارع
2. عاد + الفعل الماضي
3. يعود + الفعل المضارع
4. لم يعد + الفعل المضارع

عاد (u) fe'lining lug'aviy ma'nosi «qaytmoq; vnov; yana qaytmoq» bo'lib, asosiy ma'no anglatuvchi fe'l bilan kelganda yana, yana bir ma'nolariga ega.

عاد fe'li o'tgan zamonda yordamchi fe'l vazifasini bajarib, hozirgi zamondagi asosiy mazmunni ifodalovchi fe'l bilan kelganda o'tgan zamonda bajarilgan ish-harakatning takroran amalga oshirilganini ifodalaydi.

عاد صديقي يقرأ المقالة

Moy drug yeyyo raz prchel statyu.

Mening do'stim maqolani yana bir bor o'qib chiqdi.

عادنا نتزاور

Biz yana bir –birimiznikiga mehmon bo'lib boryapmiz.

عادنا نتلفن بعضنا البعض

Biz yana bir-birimizga telefon qilyapmiz. Mi vnov zvonim drug-drugu.

عادنا نذهب إلى القرية

Biz yana qishloqqa ketyapmiz. Mi vnov yezdim v derevnyu.

انتم عادت حاجتنا إليكم

Mi vnov nujdaemsya v Vas.

Biz Sizga muhtojmiz.

Sizlar bizga keraksizlar.

عادنا نمارس الرياضة البدنية

Mi opyat zanimaemsa sportom.
Biz yana sport bilan shug'ullanaypmiz.

عدنا نجتمع مع بعض

Mi opyat sobiraemsa vmeste.

Biz yana birga yig'ilyapmiz.

ما عدنا نحتاج إليكم

Biz sizga boshqa muhtoj emasmiz.

Mi bolshe ne nujdaemsa v Vas.

عدنا نأكل ونشرب نهراً (بالنهار)

Mi oyapt yedim i pyom dnem.

Biz yana kunduzi yeb ichyapmiz.

عدنا نتفرج التلفزيون ونذهب إلى المسرح

Mi opyat xodim v teatr i smotrim televizor.

Biz yana televizor tomosha qilib teatrğa boryapmiz.

عَدَّ fe'li o'tgan zamonda asosiy ma'no anglatuvchi fe'l bilan kelishi mumkin. Bunda عَدَّ fe'lidan keyin izchilik (ketma-ketlik)ni anglatuvchi ف bog'lovchi kelib asosiy mazmun anglatuvchi fe'l undan keyin keladi va «yana» so'zi bilan o'tgan zamonda tarjima qilinadi.

أَحْوَلَ Ahvol yana yaxshilandi—Polojenie opyat uluchshilos.

عَدَّ fe'li hozirgi zamonda asosiy ma'no anglatuvchi fe'l bilan kelishi mumkin. Bunda عَدَّ fe'li asosiy fe'l bilan و bog'lovchisi bilan bog'lanib kelishi yoki و bog'lovchisiz bog'lanib kelishi mumkin. Tarjimada ish-harakatning kelasi zamonda sodir bo'lishi anglashiladi.

يعود صديقي ويقرأ المقالة

Mening do'stim yana maqolani o'qiyapti.

Moy drug opyat chitaet statyu.

لا يعود صديقي يحس بالبرد

Moy drug bolshe (uje) ne suvstvuet xoloda.

3. عَدَّ fe'li لم inkor yuklamasi bilan kelganda ish-harakatning o'tgan zamonda inkor ma'noda amalga oshganligi anglashiladi.

لم يعد يقرأ المقالة

On bolshe ne chitaet statyu.

U maqolani boshqa o'qimayapti.

لم نعد نتلفن لهم

Mi perestali zvonit im.

Biz ularga telefon qilmay qo'ydik.

لم نعد نذهب (نسافر) إلى الريف

Biz qishloqqa boshqa bormayapmiz.

Biz qishloqqa bormay qo'ydik.

Mi perestali yezdit v derevnyu.

لم نعد نمارس الرياضة البدنية

Mi perestali zanimatsya sportom.

Biz sport bilan boshqa shug'ullanmayapmiz.

Biz sport bilan shug'ullanmay qo'ydik.

لم نعد نذهب إلى المسرح

Mi perestali xodit v teatr.

Biz teatrğa bormay qo'ydik.

لم نعد نتفرج التلفزيون

Mi perestali smotret televizor.

Biz televizorni boshqa ko'rmayapmiz.

Biz televizorni ko'rmay qo'ydik.

لم نعد كما كان عليه سابقاً (في ماضي)

Biz hozir avvalgidek emasmiz.

Mi stali ne takimi, kak bili ranshe.

لم أعد كما كنت إن كل شيء قد مضى

Ne tot ya stal teper.

Vse minovala.

Men hozir avvalgidek emasman. Hammasi ortda qoldi.

أريد أن تعودى تبسمين

Men seni yana kulishingni xohlayman.

Xulosa qilib aytganda, عَدَّ fe'li yordamchi fe'l sifatida bo'lishli jumlada o'zbek tiliga «yana», bo'lishsiz gaplarda «boshqa», ya'ni o'sha ish-harakat boshqa bajarilayotganligini bildiradi.

أريد أن تعود ابتسامتك على شفتيك

Men seni yana kulishingni xohlayman.

Jumladan ko'rinib turibdiki, hozirgi zamon fe'lining o'rnida masdar ham kelishi mumkin.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. عَدَّ fe'li hozirgi zamon fe'li bilan kelganda qanday tarjima qilinadi?
2. عَدَّ fe'li o'tgan zamon fe'li bilan kelganda qanday tarjima qilinadi.
3. عَدَّ fe'li لم yuklamasi bilan kelganda yordamchi fe'l sifatida qanday tarjima qilinadi?

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. عَادَ fe'li ishtirok etgan jumlar yordamida matn tuzing.
2. matn tarkibida عَادَ fe'li ishtirok etgan jummalarni sharhlang.

Asosiy adabiyotlar:

1. Grande B. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno-istoricheskoy osveshchenii. –M., 2001.
2. Boboyeva E.P. Arabskiy yazik v sintakchisekix konstruksiyax. –M., 2001.
3. Mamedov G. Uchebnik arabskogo yazika. –Baku, 1984.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. V.E.Shagal, M.N.Merenin. Uchebnik arabskogo yazika. M.–1983
2. Sunnatulloh Bekpo'lat. Arab nahvi. T.2007y.
3. V.E.Shagal, M.N.Merenin. Uchebnik arabskogo yazika. M.–1983
4. Sunnatulloh Bekpo'lat. Arab nahvi. T.-2007y.
5. V.S.Xranoveniy. Ocherk po obshemu arabskomu sintaksisu. M.-1973g.

Mavzu: №8 Ot + مصدر + تَمَّ va إذا كان + فعل مضارع
konstruksiyalari va ularning tarjimadagi semantic xususiyatlari.

Darsning o'quv maqsadi: Ikki kategoriyaning og'zaki va yozma nutqda qo'llanishi bo'yicha ko'nikma va malaka hosil qilish.

Tushunchalar va tayanch iboralar:

1. تَمَّ
2. Ot+مصدر+ تَمَّ
3. إذا كان +فعل مضارع

Asosiy savollar:

1. تَمَّ fe'li haqida ma'lumot.
2. Ot+مصدر+ تَمَّ konstruksiyasi.
3. Arab tilida murakkab zamonlarning ifodalanishi.
4. إذا كان +فعل مضارع konstruksiyasining tavsifi.

Hozirgi kunda ommaviy axborot vositalari, tarixiy, ilmiy-ommaviy va ilmiy adabiyotlarda (tamma) "تَمَّ" fe'li mustaqil shaklda yoki boshqa so'z birkmalari bilan kelib, o'ziga xos Grammatik konstruksiyani hosil qiladi. "تَمَّ" fe'lining o'zbek tilidagi tarjimasi "bo'lib o'tmoq", "tugamoq", "bajarilmoq" kabi ma'nolarni ifoda etadi. تَمَّ fe'lining masdar shakli تمامة, تَمَام. mazkur fe'l o'zidan keyin kelayotgan so'zga mavhumlik ma'nosini beradi.

يَتَمَّ تقديم هذا الكتاب الخدي من خلال ايام المعرض الدولي للكتب الذي يقام بالقراءت

سبتمبر القادم

Bu yangi kitobning taqdimoti, kelasi oyning sentabr oyida Qohirada bo'ladigan xalqaro kitob ko'rgazmasi kunlarida bo'lib o'tadi.

Ot+مصدر+ تَمَّ konstruksiyasi yuqorida aytganimizdek keng qo'llanib kelinmoqda.

تم توقيع الإتفاقية بشأن تعزيز العلاقات الثنائية بين أوزبكستان و الصين

O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlash borasidagi bitim imzolanadi.

تم إرسال القمر الاصطناعي الي الفضاء بفضل التكنولوجيا الروسية

Rus texnologiyasi tufayli sun'iy yo'ldosh fazoga uchirildi.

تم تنظيم شوارع طشقند من الثلوج

Toshkent ko'chalari qordan tozalandi.

konstruksiya shart shart maylidagi davomiy o'tgan zamon deb hisoblanadi. agarda davomiy o'tgan zamon to'xtaladigan bo'lsa, u ish-harakatning tugallanganligini ifoda etish uchun ishlatiladi. Uning ikki qurilmasi mavjud.

Dastlabki qurilma o'tgan zamon shaklidagi to'liqsiz fel va hozirgi-kelasi zamon shaklidagi asosiy ma'no anglatuvchi fe'llardan tarkib topgan.

Qolip: كان يفعل

Keng tarqalgan bu birikma quidagi ma'nolarni ifodalashda ishlatiladi:

1. Ma'lum lahza bilan bog'liq bo'lmagan, davr bilan chegaralanmagan ish-harakat jarayoni:

كان يخلط بياض شعره بسواده.

Uning qora soqoliga oq oralab qolgandi.

2. Uzoq davom etgan yoki takrorlanib turadigan ish-harakat;

كان يرحب بي ويقدم في كل مرة أزوره فيها فنجانا من فهورته الريفية.

U meni salim bilan qarshilar, har ziyoratimda o'zining qishloqcha qahvasidan bir payola tutardi.

3. O'tgan zamon (tarkibida) fe'llari bilan bir qatorda qo'shma gap tarkibida qo'llangan davom etgan zamon tuzulmasi, o'zga bir ish-harakatdan oldin boshlangan va uning jarayonida hali ham davom etayotgan ish-harakatni bildiradi.

Qo'shma shtatlar Iroqqa qarshi urushga chorlaganda, Iroq moddiy yordamga muxtoj edi.

Ikkinchi qurilma كان to'liqsiz fe'li va noaniq shakl hamda tushum kelishigidagi sifatdosh ishtroki bilan yasaladi.

كنت في احد الأيام ذاهبا الي المستشفى.

Kunlarning birida kasalxonaga ketgan edim.

Bevosita كان +فعل مضارع to'xtaladigan bo'lsak, nodal shart yuklamasi hisoblanadi. "كان" kasal fe'l, keyin fe'l formasi hozirgi zamonda qo'yilishi kerak. Masalan:

إذا كنت تفسر القرآن الكريم فيعلمك الكثير

Agarda Qur'oni Karimni tafsir qilib yurganingda(edi)! , u senga ko'p narsani o'rgatardi

إذا كنتم تساعدون المساكين والله يساعدكم

Agar miskinlarga yordam qilib yurarkansiz, Alloh sizlarga yordam beradi.

Nazorat savol va topshiriqlari:

1. fe'li qanday ma'nolarni ifodalaydi?
2. Ot+مصدر +تم konstruksiya qanday ma'nolarni ifodalaydi?
3. fe'li yuqoridagi konstruksiyada o'rnini almashtirishi mumkinmi?
4. كان +فعل مضارع konstruksiya nimani ifodalaydi?

Mustaqil ish topshiriqlar:

1. كان +فعل مضارع va Ot+مصدر +تم konstruksiyalari ishtrokidagi jumlar bilan matn tuzing.
2. Matndagi mazkur konstruksiyalar qo'llangan jumalarni og'zaki sharhlab bering.

Asosiy adabiyotlar:

1. B.Grande Kurs arabskoy grammatika v sravnitel'no-istoricheskoe. M.1998g
2. B.Z.Xolidov Uchebnik arabskogo yazika. T.1998g
3. Ye.P.Bobileva Arabskiy yazik v sintakticheskix konstruksiyax. M.1992g.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Kuzmin K. "Uchenik arabskogo yazika" M. 2003g
2. Imad Xatim "اللغة العربية" طرابلس 1984

3. Mishkurov E.N, A. T. Rafova. Morfologicheskiy stroy sovremennogo arabskogo yazika T. 1992 g.

4. Sunnatulloh Bokpo'lat. "Arab nahvi" T. 2007y.

Mavzu: №9 لو yuklamasi bilan yasaladigan konstruksiyalar

Dars o'quv maqsadi: talabalarda لو va u bilan yasaladigan grammatik konstruksiyalar borasida nazariy va amaliy ko'nikmalar hosil qilish.

Tushunchalar va tayanch iboralar:

لو, shart ergash gap, to'siqsiz ergash gap, Baqara surasi.

Asosiy savollar:

1. لو yuklamasining shart ma'nosida qo'llanilishi.
2. لو yuklamasining ergash gapli qo'shma gaplar tarkibida qo'llanilishi.
3. Qur'oni karim suralarida لو yuklamasi bilan yasalgan konstruksiyalarning ma'nolari.

Arab tilida umumiy tarzda لو yuklamasi shart ma'nosini ifodalaydi. Shu bilan birga u istak, orzu ma'nolarini ifoda etishda ham qo'llaniladi.

فَلَوْ أَنَّ لَنَا كَرَّةً فَنَتُخَرِّقُ مِنَ الْمُؤْمِنِينَ (الشعراء {102})

"Bas, kimki, bizga yana bir marta (yashash) bo'lsa-yu bizlar ham mo'minlardan bo'lsak!"

يَوَدُّ أَحَدُهُمْ لَوْ يُعَمَّرُ أَلْفَ سَنَةٍ (البقرة {96})

"Ulardan biri ming yil yashashni xohlaydi (ming yil yashasam, deydi)"

لو yuklamasi taklif, iltimos ma'nosini anglatadi. Arab tilida bu yuklama حروف العرض – "taklif yuklamasi" deyiladi.

لو سمحت – ruxsat bersangiz.

لو تقيم بيننا فتصيب خيراً – Biz bilan qolsangiz yaxshilikka erishasiz.

konstruksiyalari والتحديد والتبني deb ataladi. O'zbek tiliga qiziqtirish (undash) va afsus (nadomat)lantirish yuklamalari deb tarjima qilinadi.

Bu yuklamalar hozirgi-kelasi zamon fe'li oldidan kelganda bir ismga qiziqtirish, undash, yomon ishdan qaytarish ma'nolarini ifoda etadi. O'tgan zamon fe'li oldidan kelsa, yaxshi ishni qilaolmoslik yoki noto'g'ri harakat qilganda afsus va nadomat chekish ma'nolarini ifodalaydi.

لَوْ مَا تَأْتِينَا بِالْمَلَائِكَةِ إِنْ كُنْتَ مِنَ الصَّادِقِينَ (البقرة {7})

"Agar ("Men Alolohning payg'ambarima" degan da'voingda) rostgo'ylardan bo'lsang, bizga (so'zlaringni tasdiqlaydigan) farishtalarni keltirgin-chi, dedilar!"

لَوْلَا تَسْتَغْفِرُونَ اللَّهَ لَعَلَّكُمْ تُرْحَمُونَ (النمل {46})

"Sizlarga rahm-shafqat qilinishi uchun Allohndan mag'firat so'rasangizlar bo'lmasmidi?!"

Yuqoridagi ikki konstruksiya (yuklama) ham noreal shar ergash gapli qo'shma gapning bo'lishsiz shaklida qo'llanilib, o'zbek tilida "...maganida", "...bo'lmaganida" deb tarjima qilinadi.

Agar Allohning rahmati bo'lmaganida edi, insonlar halok bo'lardilar. - لو لا رحمة الله لهلك الناس

Ma'lumki real shart ergash gapdan oldin متى، من، إن، kabi yuklamalardan biri kelishi mumkin.noreal shart ergash gapda esa shar ergash gap oldidan لو yuklamasi keladi. Bunda ko'pincha fe'l o'tgan zamon shaklida bo'ladi.

وَلَوْ شَاءَ اللَّهُ لَجَعَلْنَاهُمْ أُمَّةً وَاحِدَةً {48}

Agar Alloh xohlasa edi, sizlarni bir ummat (bir xil sharoitda) qilib qo'ygan bo'lur edi.

Agar teatrda borganimizda edi, unda ajoyib spektakl tomosha qilgan bo'lar edik. - لو زرنا المسرح لشاهدنا فيه تمثيلية رائعة

Bunday gaplarda bosh gap oldidan ل ta'kid yuklamasi ham qo'shilishi mumkin. Bu yuklama gapning ma'nosiga ta'sir o'tkazmaydi, faqat fe'lining ma'nosini ta'kidlaydi.

Vaqtim bo'lganida eid., - لو كان عندي وقت لكتبت المقالة لجريدة "الدور" "Davr" gazetasiga maqola yozgan bo'lardim.

Agar Alloh ilmi va boylik berganida edi, (unda) men eng baxtli inson bo'lar edim. - لو أعطاني الله علماً ومالاً لكنت إن أسعد الناس

konstruksiyasi "go'yoki", "bo'lganida edi" ma'nolarida kelib shart va taxmin ma'nolaridagi muqoyasani ifodalaydi.

U sening mol-mulking bilan go'yoki o'zining mol-mulkidek tasarruf etyapti. - يتصرف بمقتراتك كما لو أنها مقتراته

Ba'zi noreal shartni ifodalashda bosh gap birikma olioshi bilan لا yuklamasidan iborat bo'lishi ham mumkin. Masalan:

Agar u bo'lmaganida men halok bo'lardim. - لو لا له لهلك

Shart ergash gapdan tashqari لو yuklamasi to'siqsiz ergash gapli qo'shma gap tarkibida ham kelishi mumkin. Bunda yuklama oldida و bog'lovchisi keladi va u mazmunan boshqa ma'noni ifodalaydi.

garchi, ...bo'lsa ham ma'nolarini beradi. - ولو

Garchi Muhammad yosh Anj Muhammad naja katta muvaffaqiyatga erishdi. - أنجح محمد نجاحاً كبيراً ولو أصغر منك سنّاً

Qur'oni karim suralarida لو yuklamasi asosan noreal shart ergash gap tarkibida qo'llaniladi. Masalan:

وَقَالُوا لَوْ كُنَّا نَسْمَعُ أَوْ نَعْقِلُ مَا كُنَّا فِي أَصْحَابِ السَّعِيرِ (الملك {10})

Kofirlar aytadilar: Agar biz payg'ambarning so'zlarini eshitgan bo'lsak edi yoki ularning so'zlarini aqlimiz tarozisiga solib, aql bilan o'ylab ko'rganimizda edi, do'zax ahllari orasida bo'lmagan bo'lar edik.

وَلَوْ أَنَّهُمْ آمَنُوا وَاتَّقَوْا لَمَثُوبَةٌ مِّنْ عِنْدِ اللَّهِ خَيْرٌ لَّوْ كَانُوا يَعْلَمُونَ (البقرة {103})

Agar ular imonga kelib Allohndan qo'rqсалar, Alloh tarafidan bo'ladigan savob albatta yaxshiroq bo'lishini bilsalar edi.

وَلَيْسَ مَا شَرُّوا بِهِ أَنْفُسَهُمْ لَوْ كَانُوا يَعْلَمُونَ (البقرة {102})

Jonlarini naqadar yomon narsaga (ya'ni oxiratdagi mahrumlikka) sotganlarini bilsalar edi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Qanday ma'noni ifodalaydi?
2. Qanday qo'shma gaplar tarkibida kelishi mumkin?
3. Qu'on oyatlarida qaysi ergash gaplarda ko'proq uchraydi?

Mustaqil ish topshiriqlari:

Yuklamasi bilan kelgan konstruksiyalarni "Baqara" surasidan toping va ularning tarjimasidagi ma'nolarini sharhlang.

Asosiy adabiyotlar:

1. N.Ibragimov, M.Yusupov "Arab tili grammatikasi" T.1997y.
2. Grande B. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno-istoricheskoy osvechenii. –M., 2001.
3. E.N.Mishkurov. Morfologicheskiy stroy sovremennogo arabskogo yazika. T.1992g.
4. Boboyeva E.P. Arabskiy yazik v sintakcheskix konstruksiyax. –M, 2001.
5. Mamedov G. Uchebnik arabskogo yazika. –Baku, 1984.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. V.E.Shagal, M.N.Merenin. Uchebnik arabskogo yazika. M.–1983
2. Sunnatulloh Bekpo'lat. Arab nahvi. T.2007y.
3. V.E.Shagal, M.N.Merenin. Uchebnik arabskogo yazika. M.–1983
4. Sunnatulloh Bekpo'lat. Arab nahvi. T.-2007y.
5. V.S.Xranoveniy. Ocherk po obshemu arabskomu sintaksisu. M.-1973g.

Mavzu: №10 لا inkor yuklamasi bilan yasaladigan konstruksiyalar

Dars o'quv maqsadi: Magistrlarda لا yuklamasi yordamida yasaladigan konstruksiyalar haqida nazariy va amaliy ko'nikmalar hosil qilish

Tushunchalar va tayanch iboralar:

1. لا، ليس، ما
2. لئلا، لكيلا، لكي
3. لا... فحسب فقط بل (و) ... أيضا
4. إلا إن، إلا أن
5. لا سيما

Asosiy savollar:

- 1) "نفي استقبال";
- 2) "لا" yuklamasining ikki tomonlama inkorda qo'llanishi;
- 3) "لا" ning o'tgan zamon fe'li oldidan qo'llanishi;
- 4) "لا" ning buyruq maylida qo'llanishi;
- 5) "لا" ning "fe'li ma'nosida qo'llanishi;
- 6) "لا" ning mutloq inkorda qo'llanishi;
- 7) لا، لكيلا، لئلا، لكيلا، لولا، إلا، إلا، ألا
- 8) إلا أن، إلا أن، إلا و، (و+إن+لا) وإلا، ما...إلا

Ma'lumki, "لا" yuklamasi arab tilida "لا" turkumiga kiradi va arablar uni "لا", ya'ni "inkor bog'lovchi" deb aytadilar.

"لا" yuklamasi mustaqil ravishda qo'llanganda o'zbek tiulidagi inkor yuklamasi ma'nosini yoki zidlovchi bog'lovchi ma'nolarida qo'llanishi mumkin.

holatdagi ish-harakatning inkor etilishi holati va zamon xususiyatiga qarab "لا" yuklamasi hozirgi-kelasi zamon va o'tgan zamoni fe'lining ham oldidan inkor yuklamasi sifatida qo'yishi mumkin. "لا" yuklamasi quyidagi holatlarda inkor ma'nosini ifodalashi mumkin.

1. Xabar (aniqlik) maylining hozirgi – kelasi zamonda ko'pma'nollik, kelajakda sodir bo'ladigan ish-harakatni inkorda ifodalaydi. M: "لا يجيء" – u kelmaydi.

Arab tilida bu inkor "نفي استقبال" – deb ataladi.

2. Ikki tomonlama inkorda qo'llaniladi. Ya'ni, bir vaqtning o'zida ikki fe'lining anglatayotgan ish-harakati inkor etilib, birinchi fe'l oldidan "ما" yoki "لم" inkor yuklamalarikelsa, u holda ikkinchi fe'l oldidan "لا" yuklamasi keladi. Bu holda fe'l o'tgan zamonda qo'yiladi. M: **إني ما قتلته ابنتك ولا ضربته**

"إني ما قتلته ابنتك ولا ضربته" – men sening o'g'lingni o'ldirmadim ham, uni urmadim ham.

"بلوت ما لم يره الراؤون ولا رواه الراؤون" – men hali hech (kim) bir inson ko'rmagan va hech bir roviy rivoyat qilmagan narsani boshimdan kechirdim.

3. "لا" – yuklamasi ba'zan o'tgan zamon fe'li oldidan kelib ikki tomonlama inkorni ifodalaydi, hamda har bir fe'lining oldidan takrorlanadi.

U na yedi va na ichdi. **إنه لا أكل ولا شرب**

4. Agar "ر" bog'lovchisi bilan bog'langan ikki fe'ldan faqatgina ikkinchisining harakati inkor eilayotgan bo'lsa, u holda o'tgan zamon fe'li oldidan "لا" yuklamasi qo'llaniladi.

U mening oldimga keldi, lekin hecu narsa so'ramadi. **جاءني ولا سألني شي**

5. Bu yuklama o'tgan zamonda sodir bo'lgan ish-harakati bilan bir paytda sodir bo'lgan hozirgi-kelasi zamondagi ish-harakatni ifodalovchi fe'lining oldidankelib ish-harakatni inkor qiladi.


U yonimga gapirmay keldi. **جاءني ولا يتكلم**

Bu holda fe'l ravish kabi tarjima qilinadi.

6. O'tgan zamondagi (ish-harakatni) tilakni inkor shaklida ifodalash uchun ham "لا" yuklamasi qo'llaniladi. M: **لا در - دره**

Uning suti bo'lmasin! Yoki mo'l-ko'chilikka ega bo'lmasin!

لا yuklamasi bilan yasaladigan konstruksiyalar



7. Buyruq maylidagi inkorni ifodalashda ham bu yuklamadan foydalanadi.

Bunday dema! **لا تقل ذلك**

Yuqorida keltirilgan holatlarda "لا" yuklamasi fe'llarga ta'sir etgan bo'lsa, quyida keltirilgan holatlarda "لا" yuklamasining otlarning rbo'lishsizlik (inkor) holatlarda ifoda etishini ko'rishimiz mumkin.

"لا" yuklamasi quyidagi hollarda ismni inkor etishi mumkin:

1) bu yuklama "ليس" to'liqsiz fe'li ma'nosida ishlatilib, kesimni tushum kelishigiga qo'yishi mumkin. M: **لا أخي حاضرا**

Mening akam kelmadi.

2) agar ega atoqli motdan iborat bo'lsa yoki ism aniqlik artiklini olgan bo'lsa, kesim bosh kelishikda bo'lishi mumkin. M: "لا زيد مريض"

Zayd kasal emas.

3) "لا" yuklamasi shuningdek, predmetning mavjudligini inkor qilishda ham ishlatiladi. Bunday holat arab nahvida "نفي الجنس" deb ataladi. Bu yuklamadan keyin ism faqat noaniq holatda, ya'ni "أل" artiklisiz qo'llaniladi, hamda ism tushum kelishigida tanvinsiz bo'ladi. Kesim esa qaratqich jinsida turadi. M: "لا رجال في الدار" - Uyda odam yo'q; "لا شيء" - ofarin!; "لا ريب" - shubha yo'q. (shubhasiz); "لا شيء" - Hech narsa abadiy emas.

4) Agar "نفي الجنس" dagi inkor eyilayotgan ism bevosita "لا" yuklamasidan keyin kelmasa, u holda ism bosh kelishikda qo'yiladi. M: "لا في الدار رجال" - Uyda odam(lar) yo'q.

5) Agar "لا" yuklamasi ism majudligini inkor etayotgan bo'lsa, hamda ikki inkor etayotgan ismning oldidan kelsa, u holda bu ismlarning har biri yo tushum kelishigida "tanvinsiz" yoki bosh kelishikda turishi mumkin.

Uyda erkaklar ham ayollar ham yo'q. "لا رجل و لا امرأة في الدار"

"لا رجل و لا امرأة في الدار"

"لا رجل و لا امرأة في الدار"

"لا رجل و لا امرأة في الدار"

6) Inkor javoblarda "yo'q" ma'nosida qo'llaniladi. Masalan: "هل رأيت فاطمة؟ لا. - Fotimani ko'rdingmi? Yo'q."



"لا" yuklamasi quyidagi ma'nolarda qo'llanishi mumkin.

- inkor yuklamasida: نفي
- bog'lovchi ma'nosida: عطف
- javob ma'nosida: جواب
- ta'qiq ma'nosida: نهى

"لا" yuklamasining quyidagi "grammatik" funksiyalari mavjud.

- egani tushum kelishigiga qo'yish;
- fe'lni jazm (sukunli) holatiga qo'yish;
- ism yoki fe'llarda bog'lovchi vazifasini o'tash mumkin.

لا yuklamasining qo'llanish o'rni.



Shuningdek "لا" yuklamasi predlog, ism va yuklamalar bilan qo'shib o'ziga xos gramatik konstruksiyalarni hosil qilish mumkin. لا yuklamasi bilan yasaladigan konstruksiyalar quyidagilardir.

1. Yuklamasi $\text{an} + \text{la}$ shaklida yasalgan bo'lib, u rus tilida "chtobi ne", o'zbek tilida "moslik uchun" deb tarjima qilinadi. Ko'pincha maqsad ergash gapli qo'shma gaplarda qo'llaniladi. Yuklamasi, shuningdek, ergash gap oldida keladi. Masalan:

وَأَنْ خِفْتُمْ أَلَّا تُقْسِطُوا فِي الْيَتَامَىٰ فَانكِسُوا مَا طَابَ لَكُمْ مِنَ النِّسَاءِ مَنَّىٰ وَثَلَاثَ وَرُبَاعَ فَإِنْ خِفْتُمْ أَلَّا تَعْدِلُوا فَوَاحِدَةٌ أَوْ مَا مَلَكَتْ أَيْمَانُكُمْ ذَلِكَ أَدْنَىٰ أَلَّا تَعْدِلُوا {3} (سورة النساء)

Tarjima: Agar yetim qizlarga adolat qila olmaslikdan qo'rqsangiz, sizlar uchun nikohi xalol bo'lgan ayollarga ikkita, uchta, to'rttadan uylanaveringlar. Endi agar (ular orasida) adolat qila olmaslikdan qo'rqsangiz, bir ayolga (uylining) yoki qo'l ostingizdagi cho'ri bilan (kifoyalaning). Mana shu jabr zulmga o'tib ketmasligiga yaqinroq ishdur.

2. Yuklamasi $\text{in} + \text{la}$ shaklida yasalgan bo'lib, istisnoni anglatuvchi yuklama hisoblanadi va rus tilida "krome", o'zbek tilida esa "-dan tashqari" deb tarjima qilinadi.

فَشَرِبُوا مِنْهُ إِلَّا قَلِيلًا مِّنْهُمْ (سورة البقرة-249)

Bas, u daryodan ozginalaridan boshqa hammalari ichdilar.

3. Yuklamasi diqqat-e'tiborni jalb etishda qo'llaniladi. U $\text{la} + \text{la}$ shaklida yasalgan. Unda so'roq bilan birga sergaklantirish e'tiborni jalb etish alomati ham ifoda etiladi. Masalan:

قَالُوا إِنَّمَا تَحْنُ مُصْلِحُونَ {11} أَلَا إِنَّهُمْ هُمُ الْمُفْسِدُونَ وَلَكِنْ لَا يَشْعُرُونَ {12} (سورة

البقرة)

Ular biz islox qilaveringlar deyдилar. Ogoh bo'ling, ularning o'zlari tuban kimsalardir, lekin buni bilmayдилar (sezmayдилar).

4. Yuklamasi shart ma'nosini anglatuvchi jumalarni inkor (bo'lishsizlik) shaklida ifodalovchi bog'lovchi hisoblanadi. Ba'zan noreal shart ergash gapda konkret ega va kesim bo'lmaganda inkor yuklamasidan keyin birikma olmoshi kelishi mumkin.

Masalan: لولاك لتهت في الطريق

Sen bo'lmaganingda edi, yo'ldan adashgan bo'lardim.

وَلَقَدْ آتَيْنَا مُوسَى الْكِتَابَ فَاخْتَلَفَ فِيهِ وَلَوْلَا كَلِمَةٌ سَبَقَتْ مِنْ رَبِّكَ لَفُضِّي بَيْنَهُمْ وَإِنَّهُمْ لَفِي

شَكٍّ مِّنْهُ مُرِيبٍ (سورة هود {110})

"Darhaqiqat biz muloga kitob (ya'ni Tavrot) berganimizda, u haqda ixtilof qilingan edi. Agar parvardigoringiz tomonidan (barcha

hisob kitob qiymat kunida bo'ladi, degan) so'z o'tmaganida, ularning o'rtasida shu dunyodayoq kim xaq kim noxaq ekanligi haqida xukm chiqarilgan bo'lur edi".

5. Yuklamasi $\text{ki} + \text{la}$ shaklida yasalgan bo'lib, rus tilida "chtobi ne", o'zbek tilida "moslik uchun" deb tarjima qilinadi. Bu yuklama o'zidan keyin kelayotgan fe'lni tushum kelishigida kelishini talab qiladi. Masalan: يجب عليك لكيلا تفعل ذلك Sen buni qilmaslikka majbursan.

